



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz



BURCH, JASORAT, MATONAT!

URUSHNING YAXSHISI BO'LMAYDI

Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisi, I-darajali mehnat faxriysi Akmal AKROMOV bilan suhbat




– Assalomu alaykum, Akmal ota! Bilasiz, har yili Xotira va qadrlash kunini umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelamiz. O'zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev bu yil ham Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lganlar xotirasini yod etish, urush va mehnat faxriylariga g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha yig'ilish o'tkazib, muhim hujjatlarni imzoladi. Siz bilan mana shunday shukuhli kunlarda ko'rishganimizdan mamnunmiz.

“Armiya – hayot maktabi” degan gap bor, urush esa tarix sabog'i. Ana shu saboqning muhim nuqtalari haqida so'rasak, front xotiralari eslatsak, Sizni bezovta qilib qo'yamaymizmi?

– Yo'qlaganingiz uchun rahmat, xush kelibsiz! Men faqat xursand bo'laman mehmon kelsa. Mudofaa vazirligidan keladi, agentliklardan keladi, yoshlar keladi... Bu yil dekabrda 102 yoshga chiqaman. Frontchilar kam qoldi. Avvallari har bir mahallada bo'lardi urush qatnashchilari, odamlar suhbatini olardi. Endi izlab, surishtirib topadigan vaqt keldi.

Farzandlarim, nevaralarim meni ayaydi, yuragidagi eski yaralar tirmalmasin, desa kerak. Men urushda yaralanganman, snaryad parchasi teggan. Uning joyi bitib ketganiga ko'p yillar bo'ldi. Xotiralarning ishi boshqacharoq ekan: u yurakdagi bir yara – qonamaydi, kuchli og'riq bermaydi, o'ldirmaydi.

(Davomi 2-sahifada.)



EZGULIK MUDOFAASI

Insoniyat tarixida ilk kashfiyot qanday qurol bo'lgan? Ov qurolimi yoki jang qurolimi? Qaydam... Har holda o'quv quroli bo'lmas kerak...

Zilzila, to'fon, epidemiyalar kamdek, odamzod ibtidoan buyon bir-biriga qasdi jon qilgani qiziq. Xudoning biror kuni bormikin sho'rlik ona sayyora osoyishta tin olgan bo'lsa?

Ha, urushdan urushning farqi bor. Bosqinchilik boshqa masala, Vatan yoki ezgulik mudofaasining mohiyati esa butunlay boshqa. Xuddi shunday, yigirmanchi asr vabosi bo'lgan fashizmga qarshi muhaborani siyosat, firqa yoki bir davlat nomi bilan bog'lash mutlaqo noto'g'ri.

Bu yilgi Xotira va qadrlash kuni Ikkinchi Jahon urushi yakunlanganining 81 yilligiga to'g'ri keldi. Yillar urush asoratlarini, beadoq g'am-anduhlarni bizdan tobora uzoqlash-

tirmoqda. Janggohlarda qon kechib, urushning jamiki azob-uqubatlari-ga guvoh bo'lgan, mardlik va jasorat namunalari ko'rsatgan vatandoshlarimiz safi tobora siyraklashib borayotir. Go'yo sakson yil narida otilgan g'alat o'q zamonlar osha qurbon qidirib yurgandek...

Yangi O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita rahbarligida Ikkinchi Jahon urushi yillarida jasorat va matonat, mehr va muruvvat kabi insoniylikning yuksak namunasini ko'rsatgan xalqimizning buyuk G'alabaga qo'shgan munosib hissasi bilan bog'liq muqaddas xotirani saqlab qolish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, Davlat Rahbari tashabbusi bilan urush yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi. 2020-yilgacha hisob-kitoblarda urush arafasida yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini

urushda qatnashgan, deb ko'rsatilardi. Ammo jahon arxivlari o'rganilib, yangi topilgan ma'lumotlar tahlil qilinganda O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'lga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Bundan tashqari, ilgari 396 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilardi. Aslida, bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan, 158 mingdan ko'prog'i bedarak yo'qolgan. Urushdan qoraxat kelganlarga aza ochib, taqdirga tan berilgan bo'lsa, bedarak ketgan askarlar yaqinlarining musibati undan ham og'irroq kechgan.

Ular daragi chiqmagan askar o'g'li, turmush o'rtog'i va otasini bir umr kutgan, yillab Ovropa shahar-kentlarini kezib, jigabandini izlagan.

(Davomi 3-sahifada.)

BUGUNNING SHE'RI

Ibroym YUSUPOV

JAHUN SHAMOLLARI

Qayda yursam sog'intirar,
Ona yurtim tomonlari,
Xayolimda sahar-sahar,
Esar Jayhun shamollari.

Atirgul terib cho'llardan,
Gulirayhon chamanlardan,
Bizing bul go'zal ellardan
Esar Jayhun shamollari.

Paxtakor xalq mehnat ahli,
Martabali idrok, aqli,
Hayot jo'sh ursa ne chog'li,
Esar Jayhun shamollari.

O'zbekiston – shonli diyori,
Bulbullar ishqinda yonar,
Hamma faslinda navbahor,
Esar Jayhun shamollari.

Umr qisqa, manzil uzoq,
Yillar bizdan ketar yiroq.
Mangu qo'shiq kabi yangiroq,
Esar Jayhun shamollari.

El mehri so'nmas yuzingdan,
Ulug' daryoyi azimdan,
Qoraqalpoq, Xorazmdan,
Esar Jayhun shamollari.

Ibroym der, el nafasi,
Amuning sirli sharpasi,
Umrinning boqiy sabosi,
Salom, Jayhun shamollari!

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va armiyani raqamlashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Ikkinchi Jahon urushi davrida askar Boqijon Akromovning jonini asrab qolganlari uchun Buyuk Britaniya fuqarolari – marhum Jon va Fillis Emili Le Bretonlar “Do'stlik” ordeni bilan mukotofotlandi.

✓ Oliy sud Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 1920–1934-yillarda sud hukmi bilan jazoga tortilgan 161 nafar shaxsga doir 8 ta jinoyat ishi ko'rib chiqildi va oqlov hukmlari chiqarildi.

✓ “Jaloliddin Manguberdi” tezyurar poyezdi Toshkent – Xiva yo'nalishida ilk qatnovni amalga oshirdi.

TAQDIMOT



BOKUDAGI “VAQT HAYKALI”

O'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari qadimiy va mushtarak ildizlarga ega bo'lgani uchun ham bugun chinakam yuksalish bosqichiga kirdi. O'tgan zamonlarda bu ikki qondosh va jondosh el adabiy do'stligi alohida shoir-udiblar faoliyati misolida rivojlanib kelgan bo'lsa, ayni keza o'zaro munosabatlar, ayniqsa, adabiy do'stligimiz har qachongidan ham kengroq ko'lamda ravnaq topmoqda.


(Davomi 3-sahifada.)

UYG'OQ XOTIRA

KINODAN MUHIMROQ ISH

Hotam Fayziyev. Ukpardek oppoq sochlari o'ziga yarashgan, qotma gavdali, yuzida mudom nim tabassum akslanib turadigan bu qadrdon siymo xotiramda muhrlanib qolgan.

O'sha kezlarda kino sohasida muharrir vazifasida ishlaganim bois, rejissyor, operator va aktyorlar bilan tez-tez uchrashib turardim. Garchi bu insonlarning fe'l-atvori turlicha, dunyoqarashi farqli bo'lsa-da, barchasi o'z kasbining chin fidoyilari edi. Ba'zilar hatto dunyoda kinodan muhimroq ishlar borligini tasavvuriga ham sig'dirolmasdi. Ularning ko'pchiligi bilan



munosabatimiz salom-alig-u ishga oid gap-so'zlardan nariga o'tmagan. Biroq Hotam aka bilan ancha yaqin bo'lib qolgan edik. Hotam Fayziyevning yarim asrdan ziyod ijodiy faoliyati “O'zbekfilm” kinostudiyasi bilan

bog'liq bo'lgani bois, ushbu maskanni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Doim kinostudiyaning yutuqlaridan quvonar, muammolari haqida qayg'urardi.

(Davomi 3-sahifada.)

NAJOT YO'LI

SO'ROQ OSTIDAGI NUQTA

Esse

1.DNK “ISITMA”SI

Genetika qiziq narsa-da, qirov yegan qovunday ichidan pishgan bo'lsamam, bir qarashda meni xom deb o'ylashardi. Yozganimni o'qib, o'zimni ko'rmaganlar bilan tanishib qolsam, xuddi chegarada buvasining boshputini ko'rsatgan bolaga qaraganday qarashar edi. Ayniqsa, endi ish boshlagan kezlirim bunday almoiy ishlar ko'p bo'lgan. Yunus Qambardinovich ana shundan pand yedi. Gazetaning “qo'li” bilan poyidagi gilamni tortgandim... ko'tarilib ketdi.

– Do'xtir oq bayroq ko'tardi, – dedi yuborgan odami. – Akalarcha gapi bor ekan. “Bir kelsin”, dedilar. Tanishmoqchi.

Bordim. Ochiq yuz bilan qarshi oldi:

– Denovlikmisan? – dedi tumaning yangi bosh shifokori. – Unda, qo'lingdagi qartani ko'rsatib o'yna. Qoidasi shu: har qanday ho'kiz o'z oyog'idan osiladi. Kuluklab bo'g'izlamasang, orqadan pichoq ursang... churra bo'lasan!

(Davomi 6-sahifada.)



TAFAKKUR O'YINLARI

TIRIK QOLISH BUYURILGAN

UVB-76: Kod: “NJTI 97281 NOOSFERA 5176 3559”

Sarlavhaga ajablanmang. So'zlar dunyosi tobora raqamli olamga o'rin bo'shatib bera-yotgan davrda “Jadid”ning yuqori badiiy did va keng akademik bilimiga ega, gazeta-dan yuksak estetik zavq

hamda yangi g'oyalar kutuv-chi mushitariylari e'tiborini olamga o'rin bo'shatib bera-yotgan davrda “Jadid”ning yuqori badiiy did va keng akademik bilimiga ega, gazeta-dan yuksak estetik zavq

(Davomi 4-sahifada.)



URUSHNING YAXSHISI BO'LMAYDI

Boshlanishi 1-sahifada.

Biroq simillab turadi. Aytib bersam-bermasam, ularni unutib bo'lmaydi.

Qisqacha aytadigan bo'lsam, urushga 1942-yilda borganman. "Yuborishgan" desam, yolg'onga o'xshab qoladi. Chunki hali o'n sakkizga kirmagansan deb, qaytarib yuborgan komissiya. "Tashselmau" zavodida ishlardim. Ahdimda qat'iy turib, ikkinchi marta murojaat qilganimdan so'ng xizmatga olishgan.



1942-yili bizni Saratov orqali Stalingradga olib borishdi, hozirgi Volgograd. Polkimiz eski traktor zavodi orqasidan o'tib borganini eslayman. U yerda qishgacha qolib ketdik. Undan keyin Stalingradni ozod qildik. Qo'shinning bir qismi asirlar bilan shug'ullanish uchun qoldirildi.

Shundan so'ng Kursk yoyiga yo'l oldik. U yerdagi muvaffaqiyatli janglardan keyin, rotamiz Uzlovaya stansiyasini ozod qilishi kerak ekan. Bu vazifani ham bajardik. Keyin Xarkov yaqinidagi Kazachya Lopan stansiyasini, so'ngra Belaya Serkovni ozod qildik. Keyin Dnepr daryosiga chiqdik. 1943-yilning oktyabr oyida Dnepri kechib o'tishda va Tryoxatka degan shaharchani ozod qilishda qatnashdim. Bir kuni osmonda bizning qiruvchilarimiz paydo bo'lib, dushman samolyotlarini ta'qib qila boshladi. Hammamiz xursand bo'lib, "Ural" deb hayqirdik. Fashist samolyotlari o'z bombalarini pala-partish tashlab, qochish payiga tushdi. O'sha bombalarning biri yaqinimizda portlab, 23 kishi yaralandi. Menga ham oskolka tegdi. Shundan so'ng biz yaradorlarni parom orqali daryoning narigi boriga o'tkazishdi va Poltava viloyatidagi Kobelyaki degan joyga, gospitalga yotqizishdi.

U yerda rentgen apparati yo'q ekan. "Sizlarni rentgen bor joyga olib borishadi", deyishdi. To'rt kishini sanitariya poyezdiga chiqarishdi. Shu bilan bizni Penzaga olib borishdi. Penzada to'xtab turganimizda, qaragam, "Novosibirsk - Toshkent" deb yozilgan sostav turibdi. Shayton yo'ldan uradi, deng. Bir xayolim shart shunga chiqib, O'zbekistonga ketib yuborsam...

- Toshkent degan yozuvni ko'rib ko'nglingiz buzilib ketgan-da, ota. Baribir, Vatan mehri tortadi-ku!

- Tortadi, tortadi... O'lim og'zidan qaytib, begona yurtlarda yurganingda, ayniqsa, "Toshkent" degan yozuv ko'zga issiq ko'rinadi. Bir yog'i kasal odamning ko'ngli bo'shab ketarkan. Sovuq temirga yozilgan ham qalbnii iltidadi nomi. O'zimcha o'ylayman: "Shuncha azobni ko'rding, qancha jangdan tirik chiqding. Endi ketsang "dezertir" bo'lasan..."

Shu joyiga kelganda bitta gapni aytib qo'ysam. Mana, siz ham shoir ekansiz. She'rdagi gap ko'p. O'sha paytda Hamid

Olimjonning bir balladasi bo'lardi. Hozir o'qitiladimi-yo'qmi, bilmadim. O'shanda jangdan qochmoqchi bo'lib turgan yigitga pochta borib qoladi. Onasi xat yozib, qochib tirik qolganingdan ko'ra mardlarcha o'lganing yaxshi menga, faqat oldinga yur, dushmani burdaburda qil, agar o'q tegsa ham orqagamas oldinga yiqil, deb nasihat qiladi.

Shu esimga tushib qoldi, deng. Toshkentga borsam, Hamid Olimjonga rahmat aytaman, degandim, nasib

- Ha endi boshdan o'tgandan keyin esda turadi-da. Lekin buyam har kimda har xil.

1945-yil 27-aprel kuni Abakandagi bilim yurtida edik. Aloqachilar birinchi bo'lib xushxabarni - urush tugaganini aytishdi. Kimdir shapkasini, kimdir botinkasini o'tib nishonladi. Hamma yig'lagan, bir-birini qutlagan... Shundan so'ng men Krasnoyarskdagi garnizon gospitalida 16 kun davolandim. Tibbiy ko'rikdan o'tganimga, meni "safda xizmat qilishga yaroqsiz" deb topishdi.

1945-yil 25-oktyabr kuni, shanba oqshomida poyezddan tusharkanman, "Mana, Vatanga keldim, Toshkent tuprog'iga keldim!" deb hayrat va quvonch bilan atrofga boqdim. Yerni qattiq-qattiq bosdim, o'zingni tuprog'ing ko'taradi-da erkalkini. Nima deb aytishni ham bilmayapman, rosti.

- Ota, Sizni tushundik. Hamid Olimjon Sizni shunaqa hissiyotingizni oldindan bilib, she'r yozib ketgan:

*Izingni o'padi sog'ingan yerlar,
Mehr-u vafo bilan qaraydi senga.
Yo'lingga chiqadi Barchin kelinlar,
Qadim dostonlarni solib esingga...*

Qahramon bo'lib qaytgansizlar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tgan yili gapirdi, o'zbeklardan rosa ko'p qahramon chiqqan, lekin ko'pchiligi xat-hujjat ishiga hafsala qilmay, ro'yxatlardan nomi qolib ketgan ekan. Qahramon unvonini berilmagan ekan keyin.

- Juda to'g'ri gap. Endi, urushda e'tiborsizlik bo'lishi mumkin. Taloto'pda ko'p narsa esdan chiqib qoladi. Qahramonlik berishda, orden-medal berishda bo'linma komandiri xarakteristika beradi. Uni shtab boshlig'i tekshiradi. O'shanga qarab beradi. Lekin bu ishning yana bir siri bor edi: yopiq qarorga ko'ra, har bir millatdan Qahramon chiqarish kerak edi. Shunaqa yashirin tomonlari ham bo'lgan.

Menimcha, bugun bizda bu unvonni olganlar qolmadi.

- Siz ham qahramonsiz, ota. Haqiqiy qahramonsiz. Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Siz va safdoshlaringizga qahramonlarga munosib e'tibor qaratib, g'amxo'rlik qilyapti.

- Juda to'g'ri gapirdingiz. Endi, mana men bir asrdan ko'p kechgan hayotimdan kelib chiqib aytaman. Prezidentimiz ilgari

eng ko'p g'amxo'rlik qilayotgan davlat O'zbekiston ekan.

Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan qimmatbaho sovg'a, bayram tabrigi va bir martalik pul mukofoti topshiriladi bizga.

Shavkat Mirmonovichning o'zi uyimizda mehmon bo'lgan. Menga mashina sovg'a qilgan.

- Ota, 2017-yilda 2 million so'm pul mukofoti olgan ekansiz. Mana, bu yil 30 million so'm berilyapti. Boshqa hech kim berayotgani yo'q bu rag'batni.

- Qulluq! Gap faqat pulda ham emas-da. Prezidentimiz yangi kelgan vaqtlarida 15 kishini, kuzatuvchilari bilan 30 kishini Makkaga yubordi. Hammaga aravacha berdi. Saudiya Arabistonida bizni yuksak hurmat-izzat bilan kutib olishdi. O'sha yerda har birimizga soat sovg'a qilishdi. Bunaqa g'amxo'rlikni qayerdan topamiz? Hamma duo qildi. Har kuni duo qilamiz.

- Ota, yurtimizga ko'z tegmasin. Yana dunyo notinch bo'lib turibdi-ku. Nima degan bo'laridingiz shularga?

- Xalq urushni xohlamaydi. Buni pulim ko'paysin, dunyoda nomim chiqsin, deganlar boshlaydi. Urushning yaxshisi bo'lmaydi. Men G'afur G'ulomni tanirdim. 1949-yil tanishganman. Juda ulug' odam bo'lgan - "Vaqt" degan she'rini o'z og'zidan eshitganman. Shuhrat qoldirish, nom qoldirish uchun ibodatxonalarini yoqish shartmas, xalq uchun bir binoga g'isht qo'yib, ulush qo'shsang bas, deb yozgan.

Lekin Vatan himoyasi uchun urushga kirish boshqa narsa. Har bir davlat o'zini himoya qilish, mudofaa uchun armiyasini kuchaytirishi kerak.

- Akmal ota, Siz bilan hali ko'p suhbatlar quramiz. Urush haqida ko'p kitob o'qiganmiz. O'zim Ernest Xemingvayning muxlisiman. Biroq Siz ayrgan gaplar birorta asarda yo'q. O'zingiz tirik kitobsiz. Yuz yoshdan keyin odam yosharishni boshlar ekan. Siz ham, mana, Yangi O'zbekistonda yangicha hayot boshlayapsiz. Endi bir duo qilib bersangiz.

- Shoshma. Duodan oldin yana ikki-uch og'iz gapim bor. Odamlar yangilikka, yaxshilikka tez o'rganadi. Go'yo o'zi shundoq bo'lishi kerakday, o'z-o'zidan bo'layotganday. Nega dunyoda tinch joy kam, lekin O'zbekistonimiz osoyishta? Nega qo'ni-qo'shnilar o'rtasida mojaro chiqsa, tezda tinchib qolyapti? Nega Surxon-daryoning tevaragidagi jilovsiz toifa

qilmadi.

Keyin Penzada qoldik. Operatsiya qilish uchun "gastrolyor" degan jarrohlar bo'lar ekan, shahardan shaharga ko'chib yuradigan. O'sha guruhdan biri keldi: o'rta bo'yli, echki soqol, sal qarigan. Uch kishini operatsiya qildi - bittasining qo'lini qirib, "qaychi" qilib berdi; bittasining o'pkasidan o'qni oldi, mendan oskolkani oldi. Doktorning xuddi payvandchiday ishlagani haligacha esimdami. Peshonamizga qo'lini qo'yib: "Mening qo'lim yengil, qo'rqmagin", deb taskin beradi deng.

Bizni Kemerovo yaqinidagi Leninsk-Kuznetskiy shahridagi gospitalga o'tkazishdi. Barnaulning yonida. U yerda



ancha tuzalib qolgandim. Lekin yiringli teshik paydo bo'ldi. Doktorlar rentgen qilib, qayta operatsiya qilamiz, deyishdi. Shunda gospital bosh vrachi, tibbiy xizmat polkovnigi bo'lgan bir ayol kelib qoldi. Jarohatimni ko'rdi-yu: "Davolanish usulini o'zgartiringlar, operatsiyaning keragi yo'q, o'z-o'zidan chiqib ketadi yiring", deb to'xtatdi. Keyin xizmatni jangovar xazirada davom ettirdim.

- Shularning hammasi esingizda turibdi, qoyil.

hech qachon bo'lmagan e'tiborni berayapti urush va mehnat faxriylariga. Bu kishi kelgandan keyin yurt obod bo'ldi, xalqni xursand qildilar.

"G'alaba bog'i" qurib berdi. 2021-yili Rossiya televideniyesi vakillari shu bog'ga keldi. O'ttizga yaqin faxriylarni, shular qatori meniyam taklif qilishdi. Mehmonlarning boshlig'i bir rus ayol ekan. Men undan: "Qanday, bog' sizlarga yoqdimi?" deb so'radim. U: "Hatto butun dunyoda ham bunga o'xshashi yo'q. Faqat Belarus Respublikasidagi bog' yaqin keladi biroq", deb javob berdi. Shunda men: "Prezidentimiz biz uchun hech narsani ayamaydi, bor mehrini beradi!" deb faxr bilan aytdim.

To'g'risi-da, mana, faxriylarning hammasiga mukofot berdi. "Аргументы и факты" gazetasida o'qdim, sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalar ichida mustaqillikka erishgach, urush va mehnat faxriylariga eng ko'p e'tibor berayotgan,

jim yuribdi? O'z-o'zidan bo'lyaptimi? Bularning hammasi nimaning evaziga, kimning mehnati badaliga tushyapti? Albatta, Prezidentimizning aqlli siyosati, shaxsiyati, Vatanni yaxshi ko'rishi asosiy omil! Buni hamma bilishi, gapirishi kerak. Qadrlash kerak! Ko'rdik-ku, televizorda boshqa gap, hayotda boshqa tomosha. Ana endi duoga o'tsam bo'ladi.

Yaratgandan so'raymanki, Prezidentimizga, yoshlarimizga, xalqimizga barakali umr bersin! Yurtimizni obod qilib, Yangi O'zbekiston qurish yo'lidagi ishlarga rivoj bersin! Yoshlarimi z omon bo'lsin, ilmi bo'lib, Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish niyatiga yetsin! Prezidentga, xalq noiblariga, vazirlarga, xalqqa qayishadigan odamlarga kuch-quvvat bersin! Kim yaxshi niyat qilgan bo'lsa, murodiga yetkazsin!

Iqbol MIRZO suhbatlashdi.

ABADIYAT ORALAB...



G'afur G'ULOM

SOG'INISH

*Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh!*

*Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.*

*Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan
Baxtli tong otar chog' uni kuzatdim,
Bir mal' un gulshanga qadam qo'yimishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim!*

*Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab, o'zimday mag'rur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi...*

*Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush
Albatta, yetadi o'zin boshiga.
O'g'lim omon kelar, g'olib, muzaffar,
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.*

*Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog'inishga uning haqqi bor,
Kutaman, uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelyapti, deymgan ko'rinsa g'ubor.*

*Bahor novdasida bo'rtgan har kurtak
Sog'ingan ko'ngilga berar tasalli.
Ko'chatlar qomatin eslatganidek,
Nafasin ufurar tong otar yeli.*

*Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni - allakimimni,
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.*

*Balki bir g'alat o'q yo' xavf-u xatar
Xazinai umrimdan yo'qotdi olmos...
Yo'q, u o'lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.*

*Tong otar chog'ida juda sog'inib,
Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tind,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.*

*O'rog'-u gulqaychi, istak ko'tarib,
Hovrimni bosishga bog'ga jo'nadim.
Hasharchi qo'shni qiz - uning sevgani,
Ma'yus bosar edi orqamdan odim.*

*Bog'da sarvinozim yo'q edi garchand,
Ko'makchim arg'uvon yoring Nafisa,
Seni sog'inganda qildim gul payvand -
Bu bahordan hayot olardi bo'sa.*

*Dur bo'lib taqilur yoring bo'yniga,
Sadafday ko'zimda, behuda bu yosh.
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo'yar, vasvasamdan kuladi quyosh.*

*Asaldan ajragan mumday sarg'ayib,
Ini yo'q aridek to'z'iganim yo'q.
Ulug' e'tiqodda o'laman qarib,
Abaddir mendagi padariy huquq.*

*Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni -
O'zing to'qib ketgan katta savatda
To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin, albatta.*

*Yayov, ko'ksim ochiq, boshda shaftolu,
Xuddi mo'yilabingdek mayin tuki bor,
Har bitta shaftolu misoli kulgu,
Shafaqday nim pushti, sarin, beg'ubor.*

*Suyganing labida reza ter kabi
Unda titrab turar sabuhiy shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.*

*Ye o'g'lim, jonginang salomat bo'lsin,
O'z bog'ing, o'z mevang, danagin saqla.
Shu meros bog'ingni o'z qo'lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haqla.*

*Bog'da tovu kabi xironom bo'lib,
Umud danagini birga ekingiz,
G'olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.*



“Tinchlikning g'alabalari urushnikidan kam emas, ammo unga qo'yilgan haykallar juda sanoqli.”

Frenk XABBARD



EZGULIK MUDOFAASI

Boshlanishi 1-sahifada.



O'zbekiston jangoghlarga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biri edi. Ishlab chiqarish korxonalarini harbiy maqsadlarda qayta tashkil etilib, ularning soni 300 ga yaqinlashgan. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko'chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirildi. Ularda aholimiz tun-u kun mashaqqatli mehnat qilib, qahramonlik namunasi ko'rsatgan, desak, ayni haqiqat.

Natijada O'zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318000 dona aviabomba, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, 330 mingta parashyut, harbiy ehtiyoj uchun 100 ming kilometrdan ortiq turli simlar, minalarni aniqlab beruvchi 4,5 ming dona qurilma, 2861000 dona armiya etiklari va 59 mingdan ortiq ot va ko'pgina boshqa harbiy anjomlar yetkazib berdi. Shuning o'ziyoq o'zbek xalqining g'alabaga qo'shgan hisssasi qanchalik salmoqli bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Og'ir damda xalqimizning insonparvarligi, bag'rikengligi, ayniqsa, yaqqol ko'rindi. Aholimiz urush tufayli uy-joyi, ota-onasi va qarindoshlaridan ajralgan, tahlikali hududlardan ko'chirib keltirilgan qariyb 1,5 million odamni bag'riga oldi. Ko'pgina o'zbek oilalari ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olib, oxirgi burda nonini ham baham ko'rdi. Albatta, bu shunchaki statistik ma'lumot emas, bu raqamlar mudhish urush oqibatlarini hech qachon unutmaslikka chaqiradi. Ayni chog'da, bugungi tinch va go'zal hayotning qadriga yetib, doimo hushyor va ogoh bo'lishga, yoshlarda Vatanga sadoqat ruhini shakllantirishga undaydi.

Prezidentimizning qarori bilan Toshkent shahrining Olmozor tumanida tashkil etilgan "G'alaba bog'i" yoshlarimizni millatni sevish, yurtning har qirich tuprog'ini qadrlashga o'rgatish, ezgulik va saxovat singari xalqimizning ko'p asrlik an'analarni hurmat

qilish ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti. Bu majmua xalqimiz qahramonligini ulug'laydigan, uning qadr-qimmatini yuksaltiradigan betimsol maskanga aylandi. Tan olish kerak, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizning tinch va osuda hayotini ta'minlashga, turmush darajasini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga ham alohida g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyat, qo'shni mintaqalardagi ziddiyat va qurolli nizolar O'zbekiston xavfsizligi va tinchligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Xalqimizda "Bir kun janjal chiqqan uydun qirg' kun baraka ko'tariladi", degan naql bor. Bunday janjallar mintaqa miqyosida, qit'a miqyosida, butun yer yuzida yuzaga keltiradigan parokandalikni, inqirozni, musibatni tasavvur etib ko'ring-a! Shu ma'noda, har qanday qirg'inbarot urush aslida insoniyatni tamaddun rivojidan ancha ortasga irg'itib tashlaydigan, hech qanday zalvorli vaj-karson bilan ham oqlab bo'lmaydigan qonli jinoyatdir. Chunki har qanday urushning mohiyatida inson hayotiga qasd qilish istagi yotadi. Uruşda g'oliblar bo'lmaydi, vaqtda o'chirilmasa, ertami-kechmi, bu yuho olov hammani domiga tortib ketadi, hech kimni chetlab o'tmaydi. Demakki, hozirgi kunda dunyo xalqlari uchun tinchlikni saqlab qolish, odamlarning yashash huquqini ta'minlashdan ham muhimroq vazifa yo'q ekani tobora chuqurroq ayon bo'lmoqda.

Bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biri aziz farzandlarimizga tinchlik eng ulug' ne'mat ekanligini tushuntirish, ong-shuurlariga singdirishdan iborat. Negaki, dunyo mintaqalarida urush olovini qayta yoqish, bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish, qurolli, irqiy va boshqa mojarolar chiqarish, xalqlarning osuda hayotiga raxna solish va bundan moddiy manfaat ko'rish harakatlari hozir ham yo'q emas. Tinchlik buzilgan, halovat yo'qolgan, adolat qo'ldan ketgan joydan baraka chochadi, to'lovuk urug'i vabo yangilig' ko'paya boshlaydi. Odamlar yaratish, bunyodkorlik faoliyatidan chalg'iydi.


I.MIRZAALIYEV

Boshlanishi 1-sahifada.

– Ko'chada "O'zbekfilm" qurilish mollarini sotib oling", degan bahaybat e'longa ko'zim tushib qoldi, – dedi u kishi bir gal kuyunib. – Buyam yetmaganday, qaysi kuni taksiga chiqib, "O'zbekfilm"ga tashlab qo'ying", desam, haydovchi "Qurilish qilayotgan ekansiz-da", deydi. Hozir ko'pchilik kinostudiya desa ohak bilan sementni tushunadigan bo'lib qoldi. Bu ketishda kinostudiyaning ahvoli nima bo'ladi?

Chindanam, o'sha kezlarda kinostudiya hududining kattagina qismi qurilish mollari bozoriga aylantirilgan edi. Boshqalar bunga e'tibor bermasligi mumkin, ammo Hotam aka o'z hayotining mazmuniga aylanib qolgan ushbu maskanning taqdiriga befarq qaray olmas, uning nufuzi va obro'sini hamma narsadan ustun qo'yar edi.

Keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan "O'zbekfilm" kinostudiyasi to'liq rekonstruksiya qilinib, eng so'nggi



Xullas, uchalamiz ertalabdan ishga kirishamiz. Har bir jumla, epizodni chig'iriqdan o'tkazamiz. Rejissyorlik ssenariysini yozish – juda mashaqqatli ish. Kishini tez toliqtiradi. Melis aka buni yaxshi biladi. Shu bois, orada qiziq-qiziq voqealarni gapirib berib, bizni kuldiradi. So'ng yana kompyuter ekraniga termilamiz. Tushlik

KINODAN MUHIMROQ ISH

kinotexnologiyalar bilan jihazlandi. Yaqin-yaqingacha xarobaga aylanib, deyarli huvillab yotgan ushbu maskan yana fayzli ijodxonaga aylandi. O'zimiznikilar tugul, xorijlik kino ustalari ham u yerdagi zamonaviy pavilonlarda filmlar tasvirga olishmoqda. Agar Hotam Xolmatovich hayot bo'lganida, bundan yosh boladag' quvongan bo'lardi. Afsus, u kishi shu kunlarni ko'rmay ketdi.

Kinochilar orasida Hotam Fayziyevning operatorlik mahorati haqida afsonalar yuradi. Aytishlaricha, xorijdagi kino institutlaridan birida u kishi olgan kadrlar talabalariga qo'llanma sifatida o'qitilarkan. Bu bejiz emas. Shu o'rinda taniqli rejissyor Shuhrat Abbosovning kino san'atimiz xazinasidan joy olgan "Sen yetim emassan", "Toshkent – non shahri", "Abu Rayhon Beruniy" singari filmlarini aynan Hotam Fayziyev tasvirga olganini eslashning o'zi kifoya bo'lsa kerak. Ta'bir joiz bo'lsa, mazkur kartinallarning har bir lavhasi chinakam san'at namunasi hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda Hotam aka rejissyor sifatida filmlar ishlashga bel bog'lagan edi. Shu niyatda mualliflar bilan hamkorlikda bir nechta ssenariylar ham tayyorladi. Biroq mutasaddilar negadir bunga hadeganda ro'yushlik beravermasdi. "Siz tajribali operatorsiz, rejissyor bo'laman deb boshingizni og'ritib nima qilasiz? Undan ko'ra, yangi filmlarni tasvirga olib, ko'proq shogirdlar tarbiyalasangiz yaxshi bo'lardi", degan gapni goh ochiqchasiga, goh pardaga o'rab aytishardi.

– Nega hamma meni operator deb hisoblashiga tushunmayman, – dedi u kishi bir kuni xafa bo'lib. – Axir, institutda rejissyorlik fakultetini bitirganman. Faqat ikki yil operatorlik kursida o'qiganman.

Hartugul, Hotam Fayziyev ma'lum darajada niyatiga erishdi – "Oq bino oqshomlari", "Kichkina odamlar", "Yozsiz yil", "Ta'ziyadagi to'y" (taniqli rejissyor Melis Abzalov bilan hamkorlikda) filmlariga rejissyorlik qildi.

O'sha kezlarda soha vakillari "kino – boshqa, adabiyot – boshqa" degan gapni ko'p takrorlashardi. Bir hisobda bu gapda ham jon bor. Zotan, kino san'atining asosiy ifoda vositasi tasvir va harakatdan iborat bo'lsa, adabiyot asosan so'zning kuchiga tayanadi. Ularning "boshini qovushtirish" har kimning ham qo'ldan kelavermaydi. Ushbu tushuncha ta'sirida bo'lsa kerak, ayrim rejissyorlar milliy adabiyotimizga ancha bepisand qarashardi. Ular yangi chiqayotgan asarlarni deyarli o'qimas, yozuvchi-shoiralarimizni yaxshi tanimasdi. O'zi ssenariy yozib, o'zi suratga olish ishtiyoqi kuchli edi. Afsuski, hammayam Zulfiqor Musoqov, Yolqin To'ychiyev bo'lmaydi!

Hotam aka esa o'zbek adabiyotining haqiqiy muxlisi edi. Yangi chiqqan asarlarni tinimsiz o'qirdi. Qachon qarasangiz, birona kitob yoki adabiy jurnalni qo'ltiqib yurardi. U kishi kitoblardan kino qidirardi. Qo'lga tuzukroq asar tushib qolsa, muallifini so'rab-surishtirib, topib, u bilan gaplashardi. Rejissyor sifatida suratga olgan to'rtta filmiga ham badiiy asarlar asos bo'ldi.

Hotam Fayziyevning ssenariy yozish jarayonidagi talabchanligi, sinchkovligi unchamuncha ijodkor uchun yaxshigina tajriba maktabi vazifasini bajarardi. Bunga o'zim guvoh bo'lganman.

"Ta'ziyadagi to'y" deb nomlangan komediyam nufuzli teatlardan birining ijodiy rejasiga kiritilgan edi. Lekin ayrim sabablar tufayli uni sahnalashtirish ortga surilib ketdi. Kutilmaganda Melis Abzalov bilan Hotam Fayziyev ana shu pyesa asosida film ishlashni taklif qilib qolishdi. Bundan ruhlanib, sahna asarini kinossenariyga aylantirishga kirishib ketdim. Hotam aka kunda-kun ora kelib xabar olatdi. Nimalarni yozganimni surishtirib, jo'yali maslahatlar beradi.

Bir o'ying nari-berisida adabiy ssenariy tayyor bo'ldi. Asar badiiy kengashda ham ma'qullanib, "O'zbekfilm" kinostudiyasida ishga tushirildi. Qishning ayozli kunlari edi. Kinostudiyada isitish tizimi yaroqsizligi sababli xonalar sovuq, o'tirib ishlashning imkoni yo'q. Faqat esa kutib turibdi. Oqsoqol ijodkorlarga men ishlaydigan "O'zbekkino" milliy agentligidan alohida xona ajratib berishdi. Bu men uchun ham ayni muddao bo'ldi.

Nurbay JABBOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor

BOKUDAGI "VAQT HAYKALI"

Boshlanishi 1-sahifada.

Yaqinda Boku shahrida O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Vaqt haykali" kitobining ozarbayjon tilidagi nashri taqdimoti yuqori saviyada tashkil etilganini mustahkam adabiy hamkorligimizning yana bir dalili bo'ldi.

Ozarbayjon xalq yozuvchisi Anor Rzayev tadbiri ochar ekan, jumladan, shunday dedi: "Azaldan qondosh va bir-birimizni yaxshi bilgan elmiz. Ikki xalqning birdamligini, ikki Prezidentning do'stligini bilib, kuzatib turibmiz. Davlat rahbarlarimiz olib borayotgan siyosat tahsinga sazovor. Bu do'stlik adabiy hamkorligimizga ham keng yo'l ochayotir. Sirojiddin Sayyidning "Vaqt haykali" kitobi ozarbayjon tiliga tarjima etilgan hamamizni xursand qildi. Shoirming yuksak she'rlari va dostonlari ozarbayjon xalqining adabiy-ma'naviy xazinasiga aylanishiga ishonaman".

Taqdimotda O'zbekistonning Ozarbayjon Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi Bahrom Ashrafxonov, Ozarbayjon Milliy Majlisi deputati Javanshir Feyziyev, Ozarbayjon xalq yozuvchisi Chingiz Abdullayev, filologiya fanlari doktori, professor Almaz Ulvi Binnatova, shoirlar Ilg'or Turk o'g'li, G'ayrat Majid kitob haqida fikrlarini bildirdi. Kamina ham ushbu she'riy to'plam tarjimasining ahamiyati xususida so'zladim.

"Vaqtga haykal qo'ymoq payti ham yetdi!" – ushbu satr Sirojiddin Sayyidning 1984-yili yozilgan "Saksoninchi yillar" dostonidan olingan. Vaqt degan ulug' ne'matni qadrlash, uni yelga sovurishdan saqlanmoq, asl haqiqatlarga bag'ishlamoq – vaqtga haykal qo'yish deganda shoir ana shu teran mohiyatni nazarda tutadi. Uningcha, hayot – hazrat Navoiy kuylagan azob, ustoz G'afur G'ulom e'zozlagan ezgu dard. Zero, haqiqiy she'r ana shu azob va ezgu dard hosilasi.



Vaqtga ijodkor qo'yajak haykal "Foniy hasrat emas – Oliy Orzudan, O'tkinchi g'am emas – Yuksak Ishonchdan" qurilmog'i zarur. "Tug'yondan, vijdondan, giyohdan, tongdan, Shabnamdan, qasamdan, Sayyid ana shunday zalvorni sevgi, quvonchdan" bunyod etilmog'i kerak bu haykal.

Haqiqiy shoir yuragini mudom millat dardi, bashariyat dardi o'rtaydi. U hazrat Navoiy bo'lib, Astrobodga surgun etiladi, Sobir Termiziy bo'lib suvga g'arq qilinadi. Dunyoda kechayotgan urush-taloshlar, zulm-o'ldirishlar, talon-torojlar qalbini muttasil iztirobga soladi, ruhini g'am dengiziga cho'ktiradi. Afg'oniston qumlarida askarlar yiqilganda, U ham yozuv stolida so'zsiz yaralanadi. Jenevadagi tinchlik shartnomalari cho'zilganda, uni tahlikaga solgan muddatlar ham uzayadi. Nikaraguada, Bayrutda yuz bergan vayron-garhlik va qotilliklardan daftariga qonlar sachraydi, samolarda jon bergan Muin Bsisu hasrati uning ham ko'ngliga mung soladi. Ona ko'zyoshlari timsolida dunyo ko'zyoshlarining mohiyatini anglaydi. Inson dard bilan buyuk ekanini yurakdan his etadi. Butun dunyo vijdonlarini birlashmoqqa chorlaydi.

Doston mana bunday xulosalanadi:
Mening ko'z oldimda
Vaqt turar faqat –
Butun Insoniyat
shaklidagi Vaqt.

Vaqtning insoniyat shaklida tasavvur etish, his etish uchun shoirona tafakkur va ijodiy taxayyul, tongday toza qalb zarur, yurakda cho'ng dard bo'limg'i kerak. Sirojiddin Sayyid ana shunday zalvorni yelkasiga olgan salohiyatli ijodkor. Shu bois, turli millat shoirlari uning asarlarini o'z tillariga tarjima qilmoqqa ehtiyoj sezayotir. She'rlari qar-dosh o'lkalarda ham sevib o'qilmog'ida.

"Vaqt haykali" kitobini ozarbayjon tiliga taniqli ijodkorlar Akif Azalp va Yashar Qosim tarjima qilgan. Kitobdan shoirming inson va jamiyat munosabatlari, hayot va ishq falsafasi, Vatani va xalq muhabbati, tarix va zamon konsepsiyasi bilan bog'liq sara she'rlari, "Saksoninchi yillar" hamda "Tanazzul" dostonlari o'rin olgan. Bu nashr o'zbek she'riyatining ham yutug'i, o'zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari muttasil rivojlanayotgan dalilidir.

Safar rejimizning eng muhim qismlaridan biri – tarixiy Ganja shahriga borish va buyuk Nizomiy Ganjaviy maqbarasini ziyorat etish edi. Mezbonlarga ehtirom hamda ularda Ozarbayjon o'lkasi haqida kengroq taassurot uyg'otish uchun bo'lsa kerak, yo'limiz Buyuk Kavkaz tog'lari dovoni orqali tashkil etildi. Ulovimiz yo'lining tanobini tortib borar ekan, Buyuk Kavkaz tog'lari etagida joylashgan



TIRIK QOLISH BUYURILGAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu g'alati belgilar texnologik sirlar, konspirologiya, futuristika va geosiyosatda qanday ma'no anglatishiga quyida batafsil to'xtalamiz.

Zabardast jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy ham yoshlarni ilm-fanga qiziqirish uchun shu kabi usullardan unumli foydalangan. U kishining "Qisqacha umumiy jo'g'rofiya" asaridagi: "Mirrixda (Marsda) hayot bor va ilmi bizdan ziyoddir", degan ilmiy-fantastik farazlari o'sha davr Turkistoni uchun misli ko'rilmagan jasorat edi. Mutolaa orqali hali o'zbek matbuoti deyarli to'xtalmagan va o'quvchilarga tushuntirib bermagan hodisa hamda faktlar, dunyoda keng muhokama qilinayotgan farazlardan o'ziga xos xulosalar chiqarish, faol o'quvchi sifatida yangidan yangi farazlarni ilgari surish imkoniga ega bo'lasiz.

Ajabtovur tahlil va hodisalarning mantiqiy izchilligini teranroq anglash uchun avval yurtimizning raqamli rivojlanishi qanday bosqichlardan o'tayotgani va biz nimalarga intilayotganimizni tahlil qilib olishimiz zarur.

RAQAMLI BUYUK IPAK YO'LI

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan raqamli-texnologik inqilob ko'lamini his qilmagan odam bo'lmasa kerak. Biz qisqa fursatda internet tezligi soniyasiga 2,5 Mbit/s. dan oshmaydigan, oddiygina elektron pochta o'chuguncha qumg'onda choy qaynatib, parvarda bilan tamaddi qilib olishga ulguriladigan "raqamli zindon"dan mintaqaning texnologik buyroqdoriga aylandik.

Bugun yurtimizda internet tezligi soniyasiga 100 Mbit/s. dan oshadi. 2016-yildagi bir megabayt internet uchun to'lanadigan 400-600 so'm o'rni 3-5 so'mdan oshmaydigan narxlar egalladi. Ayrim ulgurij paketlarda hatto 1 so'mdan ham xarid qilish mumkin. Aholining internet bilan ta'minlanganligi bo'yicha xalqaro statistikaning oxirgi qatorlaridan – narxlar eng arzon "top" davlatlardan biriga aylandik.

"Bir million dasturchi" loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirdik. Iqtisodiyotga "IT ekspot" degan tushuncha kirib keldi. Hisobotlarga qaraganda, yiliga 1 milliard dollarlik IT mahsulot sotaymiz. Ichki onlayn xizmatlardan ko'rilyotgan foyda 10 trillion so'mga yaqinlashdi. Sohada 100 mingdan ortiq yoshlar yuqori daromadli ish bilan ta'minlandi.

Yashil energiyaga asoslangan yirik data-markazlar qurilmoqda. Eng mashhur kompaniyalardan biri – "DataVolt" bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ana shunday loyihalardan birining qiymati 5 milliard dollarga teng.

Data-markazlar zamonaviy karvonsaroy, rezervuar-quduq, sardoba vazifalarini o'taydi. Biz Xitoy va Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarini Rossiya va G'arb,



Yaqin Sharq va Afrika bilan qu-ruqlik orqali bog'lovchi Raqamli Buyuk Ipak yo'lining dastlabki ana shunday karvonsaroylarini, ularda xizmat ko'rsatuvchi yetuk xodimlarini shakllantira boshladik. Tez orada global raqamli olamning muhim strategik qismiga aylanish tadorigidamiz.

Xo'sh, bu shiddatli intilish zamirida faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni ko'tarish yoki zamonaviylikka taqild istagi bor, xolosmi? Aslo! Bu poyga milliy tafakkurning yangi olamdagi istiqloqlik uchun muhoriabadir.

Biz global raqamli tizimning shunchaki "ma'lumotlar manbasi" yoki "iste'molchisi" bo'lishdan yuksalib, uning mazmun va mohiyatini belgilovchi kuchlardan biriga – "Buyuk yo'l" egalari aylanishga urinoqdamiz.

Biroq devqadam ilgari borayotgan dunyoda quloqlarni qomatga keltirayotgan sanoqsiz serverlarning g'uvullashi ortida noma'lum bir nido ham yashiringandek. Bu shunchaki texnik shovqin emas, balki raqamli olamning tubidan kelayotgan sirlar bir "Monolog"ga o'xshaydi...

Endi sizni konspirologiyaning qorong'i ko'chalariga chorlab, sarlavhada va'da qilganimizdek, Usmon Nosir uslubida lirik chekinish qilamiz...

"G'O'NG'ILLOQ"

Aslida, maqolaning bu qismi ichsarlavhasini "Monolog"dagidek: **"Jim! Ufqda botar quyoshni /Shart kesilgan boshga o'xshatdim"**, deya qo'yimochi edim. Zero, "lirik chekinish"ga o'xshash "yurish" yuqoridagi monoton hisobotdan so'ng o'tmoqchi bo'layotgan g'alati ohangimizga juda mos tushardi...

Gapning indallosi: o'tgan yilning dekabr oyi oxirida ko'plab konspirologlar – g'ayriilm va jahon

miqyosidagi fitna g'oyasi tarafdorlari – tilida "Qiyomat radiostantsiyasi", "G'o'ng'illoq" nomlari bilan mashhur, odatda efirga faqat bir maromdagi g'o'ng'illash tovushini uzatib turuvchi UVB-76 stansiyasi kutilmaganda faollashib, ayrim kunlarda 20 tagacha kod e'lon qildi. 19-yanvarda esa "NJTJ 97281 NOOSFERA 5176 3559" kodini tarqatib, yana g'o'ng'illash rejimiga qaytdi.

1976-yildan buyon g'o'ng'illayotgan, ahyon-ahyonda g'alati kodlar e'lon qilib turadigan bu stansiya – Rossiya Mudofaa vazirligining eng katta sirlaridan biri. Konspirologlarning aytishicha, kodlar har gal dunyodagi yirik o'zgarishlardan avval jo'natila boshlanadi. Ular stansiyaning yadroviy va yuqori texnologik qurollar, kosmik va kvant texnologiyalari sohasi, "Последний периметр", "Рубеж", "Булькан" tizimlari bilan bog'liq, deb hisoblashadi.

Stansiyaning bu galgi faollashuvi avvalgilarga o'xshamaydi. Ilgari u hech qachon bu qadar "jazava" bilan ketma-ket kodlar tarqatmagan. "Fitna g'oyasi" tarafdorlari "G'o'ng'illoq" yillar mobaynida uzatib kelgan kodlar katalogini yaratishgan. Erimnagan bu odamlar kodlarni o'qish uchun o'ziga xos alifbo ham tuzishgan. Xo'sh, ularning "alifbo"si oxirgi kodni nima deb "tarjima" qildi?

Ukraina Fanlar akademiyasi asoschisi, akademik Vladimir Vernadskiy ta'limotiga ko'ra, olam taraqqiyoti turli bosqichlar – geosfera, biosfera va nihoyat noosfera, ya'ni, inson aql-u zakovatining tabiat kuchlari ustidan hukmonlik darajasigacha rivojlanib boradi. RF Mudofaa vazirligining "G'o'ng'illoq" 19-yanvar kuni ilgari hech qachon ishlatmagan "Noosfera" kodini e'lon qildi. "G'alati odamlar": "Yangi

era boshlandi!" deya ayuhannos solishmoqda.

"RAQAMLI DAJJOL"

Dunyo alg'ov-dalg'ov. Harbiylarning kod almashinishi tabiiy hol. Ammo urushlar, kelishmovchiliklar, nizolar hamisha bo'lgan. Bular "G'o'ng'illoq" uchun yangilik emas. Konspirologlarning "yangi zamon" haqidagi vahimalariga miyog'imizda kulib qo'ysak-da, ularning g'ayrioddiy farazlarini ham ko'rib chiqish zarur qilmaydi.

"G'o'ng'illoq" "Noosfera"ni e'lon qilib, yana "uyqu"ga ketishidan ikki kun ilgari ko'pchilikning e'tiboridan chetda qolgan, ammo jahon texnologiyalari tarixida misli ko'rilmagan voqea yuz berdi. 17-yanvarda Ikon Mask 1 gigavatt quvvat bilan ishlaydigan yangi data markazi – "Colossus-2"ni ishga tushirdi. Uning quvvati oyma-oy oshirib borilishi nazarda tutilgan. Aprel oxirlariga borib superkompyuter 1,5 gigavatt energiya iste'mol qilishi aytilgan edi. Iyunda esa to'liq quvvat bilan ishlay boshlaydi. Yaqin kelajakda u 2 gigavattgacha chiqishi kutilmoqda. Ya'ni, birgina shu "mechka" yeydigan energiya Kipr, Estoniya, Xorvatiya, Sloveniya kabi davlatlarning butun iqtisodiyoti iste'mol qiladigan quvvatdan bir necha marta ko'p. Hatto qo'shimiz Qirg'izistonning sarfi unigiga yetolmaydi. Ruanda, Mali, Senegal, Madagaskar kabi o'nlab Afrika davlatlarining xarjini qo'shib hisoblaganda ham ulardan oshib tushadi.

"Colossus-2" – Grok AI modelining yangi versiyalarini o'qitishga mo'ljallangan, hisoblash quvvati miqyosi jihatidan eng yirik superkompyuterlar klasteridir. Yaqin kelajakda u soniyasiga 50 eksaflops amalni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inson tanasida o'rta hisobda 37,2 trillion hujayra bor. Ya'ni bu superkompyuter bir soniyada har bir hujayramizni 1,5 million marta skanerlab chiqishi mumkin.

Ayrimlar ushbu tizimning cheksiz imkoniyatlarini hisobga olib, ramziy ma'noda "Raqamli Dajjol" deb nomlab ham ulgurishdi. Eng qizig'i shundaki, "G'o'ng'illoq" Noosfera kodini e'lon qilishidan bir necha soat avval – 19-yanvar kuni "xAI" aynan mana shu "Dajjol"da Grok sun'iy intellektning yangi versiyasini o'qitishni boshladi... "Fitna g'oyasi" tarafdorlari buni yangi zamon boshlanganining "rasmiiy e'tirofi" deya qabul qilishmoqda.

Ayrimlar ushbu tizimning cheksiz imkoniyatlarini hisobga olib, ramziy ma'noda "Raqamli Dajjol" deb nomlab ham ulgurishdi. Eng qizig'i shundaki, "G'o'ng'illoq" Noosfera kodini e'lon qilishidan bir necha soat avval – 19-yanvar kuni "xAI" aynan mana shu "Dajjol"da Grok sun'iy intellektning yangi versiyasini o'qitishni boshladi... "Fitna g'oyasi" tarafdorlari buni yangi zamon boshlanganining "rasmiiy e'tirofi" deya qabul qilishmoqda.

"QORA QUDUQ"NING QOPQOG'I OCHILDIMI?

Xo'sh, nima qilindi? Eng quadrattisi bo'lgan taqdirda ham, dunyodagi minglab data-markazlardan biri, xolos. Ammo gap shundaki, o'tgan yili bahorda Nvidia (bozor qiymati 4,5 trillion dollardan oshgan yirik korporatsiya) – Blackwell

arkitekturasi yangi chiplarini Ultra versiyalarini sota boshladi. Ular oldingi H100 va H200 modellaridan bir necha barobar kuchliroq. Shu tirmoqdek "matoh"ning ichiga 208 milliard tranzistor joylashtirilgan. 4 nanometrik texnologiya asosida yaratilgan. Ya'ni, tranzistorlar orasidagi devorning qalinligi 15-20 ta atom! Sochimiz tolasidan minglab marta kichkina. Soniyaning milliarddan bir qismida trillionlab amalni bajara oladi.

Buni tushunish uchun bolaligimizdan yaxshi tanish "Rassvet" televizorini eslash kifoya. Yodingizda bo'lsa, o'sha qadimiy qutida bor-yo'gi 14 ta lampa bor edi. Shu lampalar tranzistorlar vazifasini o'tagan. Endi 208 milliardni o'sha 14 ta lampa bilan solishtiring. Miya ishlamay qoladi, shunday emasmi? Bitta tirmoqdek chip 30-35 yil avvalgi butun bir katta shaharning jami televizorlari va barcha elektrotexnikasidan son-sanoqsiz marta "aqliroq!"

"Colossus-2" klasterida avvalgi H100, H200 chiplaridan tashqari ana shu "Qora quduq"dan 555 ming donasi o'rnatilgan. Bu raqam joriy yil oxirigacha 1 millionga yetkaziladi.

Nvidia bu bilan to'xtamoqchi emas. Kuzda Rubin tipidagi yangi chiplarni sotuvga chiqarishni rejalashtirmoqda. U 3 nanometrik texnologiyalar asosida ishlab chiqariladi va Blackwell'dan bir necha barobar kuchliroq bo'ladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yetakchilari hozirgi o'zida Rubinga turnaqator navbatda turishibdi. Ammo Nvidia bu yangilikni ham birinchilardan bo'lib "xAI", ya'ni "Colossus-2"ga bermoqchi ekanini aytgan.

Kompaniyaning aprelda e'lon qilgan yangi NB-Cell loyihasi esa bulardan ham o'tib tushdi. Unga ko'ra, yangi, yanada samarali chiplarni loyihalashtirish ishlari endilikda to'laigacha maxsus sun'iy intellekt tizimlariga o'tkaziladi. Ya'ni, SI o'z miyasini o'zi takomillashtira boshlaydi va bu jarayon avvalgi muhandislar tomonidan qilinganidan ko'ra yuzlab marta tezlashadi.

SUPERINTELLEKT QACHON YARATILADI?

Hisoblash quvvatining bu kabi muttasil ortishi insoniyatga nima beradi?

Mutaxassislar sun'iy idrok texnologiyalari taraqqiyotini asosan uch bosqichga ajratadilar. Biz hozir foydalanayotgan SI – AI vektorli hisob-kitob tamoyillariga tayanadi. Ular muayyan vazifani bajarishga yo'naltirilgan til modellari ekanini, mustaqil ravishda "terminator"ga aylanib ketmasligini bugun barchamiz tushunib yetdik.

Biroq so'nggi paytlarda yirik korporatsiyalar diqqat markazida turgan va shiddatli izlanishlar olib borilayotgan sun'iy tafakkurning mutlaqo yangi pog'onalari mavjud: bular – AGI (umumiy sun'iy intellekt) va undan keyingi ASI (sun'iy superintellekt) bosqichlaridir. Sem Altman va Ikon Mask kabi yetakchi muhandislar fikricha, Aldan AGIga o'tishning yo'li – "masshtablashtirish", ya'ni, ma'lumotlar bazasi va hisoblash quvvatlarini tasavvurga sig'mas darajada kengaytirishdir. Chiplarning yashin tezligida mikrolashayotgani, ma'lumotlar markazlari quvvatining soat sayin oshib borayotganidan ko'zlangan asl maqsad ham aynan AGI pog'onasiga yetish. Buni bugun biror korporatsiya yashirib o'tirgani yo'q. Xususan, "OpenAI" va "xAI" kabi kompaniyalar o'z nizomlarida umumiy sun'iy intellektga erishishni bosh strategik maqsad sifatida belgilab qo'ygan.

Masshtablashtirish muayyan cho'qqigacha yetgach, u oddiy vektorli hisoblash qolipini yorib chiqadi. Qog'ozga tushirilsa, nollari o'nlab sahifalarga sig'maydigan murakkab neyron bog'lamlaridan

iborat, o'zini mustaqil anglay oluvchi ASI – sun'iy superintellekt yaratilishiga bor-yo'gi chorak qadam qoladi.

O'tgan yilning dekabrda Davosda o'tgan Jahon iqtisodiy forumida esa "Colossus-2" tizimi imkoniyatlari sabab 2026-yil yakuniga qadar AGIga erishish istiqbollari juda jiddiy muhokama qilindi. Demak, insoniyat o'zidan necha chandon zakovatli va qudratli kuchni yaratishdek ortga qaytmas yo'lga qadam qo'yib ulgurdi. Bu shiddatli evrilishning intihosini esa bugun na yirik olimlar, na nufuzli siyosatchilar bashorat qila olyapti.

"UYG'ON O'G'LIM, TUR O'G'LIM!.."

Albatta, yuqorida keltirilgan konspirologik farazlar – "G'o'ng'illoq" sirlaridan maqolaning jizbasini oshirish hamda texnik atamalarining "og'ir" yukini yengillatish uchun foydalandik. Ammo bularning birortasi to'qima emas. Biz faqat dunyoning narigi chekkasida muhokama qilinayotgan tasodif va qarashlarni bir nuqtaga jamladik, xolos. "Jadid"ning tafakkuri baland o'quvchisi bu "bo'yoqlar" ortidagi xolis haqiqatni darrov anglashiga va kerakli xulosaga kela olishiga ishonchimiz komil.

Kechagina 14 ta lampali "Rassvet"ni mo'jiza deb yurgan millatimiz bugun Blackwell va Rubin platformalari davriga qadam qo'ydi. Bu jarayonlardan ko'rinish turibdiki, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi shunchaki reja emas, balki raqamli olamda tirik qolish buyrug'idir. Prezidentimiz tomonidan SI texnologiyalarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan tarixiy qarorlar, Google va Amazon kabi gigantlar bilan erishilgan kelishuvlar – bizni "raqamli zindon"dan olib chiqishga qaratilgan muhim qadamlardir.

Xalqaro ekspertlar aholimizning 70 foizini tashkil etuvchi yoshlarni "texnologik sakrash" uchun asosiy tramplin sifatida ko'rishmoqda. Bu – mislsiz kuch. Yaqinda taqdim etilgan "Bonu AGI" milliy sun'iy intellekt tizimi bu yo'lidagi dastlabki jasoratli harakatlardan biri bo'ldi. Ishlab chiquvchi yigitlarimiz "AGI" (umumiy sun'iy intellekt) abbreviaturasi ortiga qanday texnik ko'lamni yashirishganini bilmadig-u, ammo buni yuksak marraning ifodasi, deb tushundik. Zotan, Beruniy, Xorazmiy, Ulug'bek va Navoiy avlodlariga aynan mana shunday ambitsiyalar yarashadi, yigit-qizlarimiz ham uyg'onganini, dunyoga yetishib yurishga qattiq bel bog'laganini ko'rsatadi.

Ammo biz hali Neuralinkning "raqamli bio-simbioz" borasidagi yutuqlari, Xitoyning SiC (kremniy karbid) tarmoqlari, "abadiy" ishlaydigan xavfsiz atom akkumulyatorlari, Atlas kabi insonsimon robotlar, 3D-printerlar va VR texnologiyalarning kundalik hayotimizga ta'siri, hatto RealDolls industriyasining sun'iy teri va mushaklar sohasidagi muvaffaqiyatlari haqida gaplashmadik. O'ylaymizki, kelgusi sonlarda bularga ham navbat keladi. Bularning har biri bir-birini tortib ketuvchi zanjirli jarayonlardir. Kvant texnologiyalaridagi bittagina muvaffaqiyat qolgan barcha sohalarda "portlash" effektini berishi mumkin.

Bilamizki, texnologik poygada shafqatga o'rin yo'q. Yo tizimning ma'lum strategik qismiga aylanasiz yoki chetda qolib, boshqalarning algoritmi asosida yashaysiz. Bizning tanlovimiz esa aniq: uyg'onish va Xorazmiy bobomiz kabi dunyoning yangi raqamli algoritmini tuzishda asosiy ishtirokchilardan biriga aylanish.

Zero, kelajak kutilmaydi, u yaratiladi!

Ulug'bek IBODINOV





OLAM OLIMI



Serj AROSH

Kvant fizikasida inqilobiy tadqiqotlar olib borayotgan nobelchi

Uzoq vaqt davomida ko'plab kvant hodisalarini faqat nazariy jihatdan o'rganish mumkin edi. Serj Aroshning kvant tizimlarini aniq nazorat qilish va o'lchash bo'yicha olib borgan tadqiqotlari mikro-dunyodagi jarayonlarni chuqur tushunish uchun yo'l ochdi. Olimning ishlari kvant informatikasi, kvant hisoblash va yuqori aniqlikdagi o'lchash texnologiyalarining rivojlanishiga muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

MUVAFFAQIYAT SARI

Serj Arosh 1944-yil 11-sentyabrda Marokashning Kasablanka shahrida tug'ilgan. Ziyolilar oilasida ulg'aygan bolakay ilm-fanga mehr qo'ydi. Oilasi bilan Fransiyaga ko'chib o'tgach, nufuzli ta'lim muassasalarida o'qiy boshladi. Oliy ma'lumotni Parij universitetida oldi. 1971-yilda u mashhur fizik Klod Koen-Tannuji rahbarligida Per va Mariya Kyuri universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Fransiyadan tashqari, AQSHning Stenford, Harvard, Yel universitetlarida faoliyat yuritgan hamda ilmiy izlanishlar olib bordi.

ILMIY YO'NALISHLARI

Olimning asosiy tadqiqotlari kvant elektrodinamikasi va fotonlar bilan atomlarning o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan. U maxsus rezonatorlar yordamida fotonlarni tutib qolish va ularni yo'q qilmasdan kuzatish usullarini ishlab chiqdi. Mazkur usullar kvant tizimlarining holatini buzmasdan o'lchash imkonini berdi. Bu esa kvant fizikasidagi eng murakkab masalalardan biri – "o'lchash muammosi"ni hal qilishga yaqinlashtirdi.

Serj Aroshning ilmiy ishlari zamonaviy texnologiyalar rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xususan, kvant kompyuterlar, yuqori aniqlikdagi sensorlar yaratish, kvant kriptografiya va axborot xavfsizligi kabi sohalarida uning tadqiqotlari nazariy va amaliy jihatdan asos bo'lib xizmat qilmoqda.

E'TIROF

2012-yilda Serj Arosh va Devid Uaynlennda "individual kvant tizimlarini o'lchash va boshqarish imkonini beruvchi innovatsion eksperimental usullar uchun" fizika bo'yicha Nobel mukofoti berildi.

Shuningdek, olim Fransiyaning oliy darajadagi "Faxriy legion" ordeni, AQSH, Germaniya, Shvetsiya, Chexiya tadqiqot markazlari ta'sis etgan mukofotlar hamda Xalqaro kvant aloqasi mukofotiga loyiq ko'rilgan.

SERJ AROSH O'ZBEKISTONDA

Yaqinda poytaxtimizda o'tkazilgan "Kelajak muhandisleri" xalqaro festivali doirasida Serj Arosh mamlakatimizga tashrif buyurdi. Toshkent va Samarqand shaharlaridagi oliy o'quv yurtlarida o'tkazilgan uchrashuvlarda yosh tadqiqotchilar ham ishtirok etdi. Olim kvant olamida kechayotgan zamonaviy o'zgarishlar haqida so'z yuritib, boy ilmiy tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Shuningdek, u yangi kashfiyotlar ortidagi murakkab jarayonlar va ilmiy izlanishlardagi sabr-toqatning ahamiyatini alohida ta'kidladi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

SANA

Egizik QAHRAMON

May oyining boshlanishida nafaqat qoraqalpoq va o'zbek, balki turkiy dunyo adabiyotining ulug' namoyandalari, O'zbekiston Qahramonlari Ibroym Yusupov va To'lepbergen Qaipbergenov tavallud topgan. Ikkalasi ham bir yilda – 1929-yili beshinchi va yettinchi may sanasida dunyoga kelgan.

Xalqimizning ardoqli farzandlariga aylangan bu ikki ulug' ijodkorning unutilmas xotirasi va adabiy merosi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yuksak e'tibori tufayli Yangi O'zbekiston zamonida chinakam qadr topdi. Milliy bog' hududidagi Adiblar xiyobonida adabiyotning buyuk namoyandalari qatorida har ikki adibga muhtasham yodgorlik o'rnatildi. Nukusda Ibroym Yusupov ijod maktabi tashkil etildi, To'lepbergen Qaipbergenov xotirasi abadiylashtirildi, 2019-yili tavalludlarining 90 yilligi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlandi, yuksak noshirlik san'ati asosida "Tanlangan asarlar"i nashr etildi. "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli yuz jildlik kitoblar jamlanmasining 35-jildi Ibroym Yusupov, 36-jildi To'lepbergen Qaipbergenovning eng sara asarlaridan tarkib topgan.

To'lepbergen og'a bilan Ibroym og'a bamosil egizakdek yashadi, ijod qildi, adabiyot sharafiga ko'klarga ko'tardi. Mustaqillik yillarida badiiy ijod ostonasiga qadam qo'yan bizning avlod vakillari bu ikki ustoz bilan uchrashish, suhbatlashish, ularning mahorat saboqlaridan bahramand bo'lish baxtiga muyassar bo'lganmiz. O'sha davr gazeta-jurnallari sahifalarida ularning asarlaridan o'g'irgan tarjimalarimiz, umumxalq bayramlari munosabati bilan tashkil etilgan suhbatlarimiz e'lon qilingan. Bu unutilmas adabiy suhbatlar bizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

To'lepbergen og'aning "Sovuq bir tomchi" nomli ilk qissalaridan birini zamonaviy o'zbek adabiyotining ulug' namoyandasi Abdulla Qahhor o'zbek tiliga tarjima qilgan va qoraqalpoq yosh ijodkorini amaliy qo'llab-quvvatlagan. 2003-yili Nukusda "Bilim" nashriyatida chop etilgan "Yo'l-yo'lakay uchrashganlarning hozirgacha faqat 999 savoliga yo'l-yo'lakay bergan javoblarim" nomli kitobidagi suhbatida muxbirning: "XX asr atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorni ustoz sifatida tan olasizmi? Agar shunday bo'lsa, ustozingizning qanday nasihatlari esingizda qolgan?" – degan savoliga To'lepbergen og'a shunday javob bergan:

"Birinchidan, shuni bilib qo'yingki, o'timshidagi ulug' shoirlar yaratgan o'zbek adabiyoti – butun jahon yozuvchilari uchun betakror ustoz! Ana o'sha betakror ustozning asarlaridagi badiiy mahorat sirlari o'tida qaynab toblanish bilan Yevropa adabiyotining tiniq qaymoqlarida obdon cho'milgan Abdulla Qahhorni bir men emas, hatto o'z tengdoshlari ham ustoz deb tan olar edilar. Savolingizning ikkinchi qismiga kelsak, ustoz Abdulla Qahhorni ko'proq hayron qoldiradigan bir holat – turkiy zamon xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi bordi-keldining ko'ngildagidek emasligi edi. Shularni hisobga olgani uchunmi, ba'zi uchrashuvlarimizda: "Hudobiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak", deb qo'yar edi. Shu bilan birga, u adabiyotimiz kelajagi haqida jon kuydirib, O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayevni o'zbek adabiyotining og'ir kemasini buyuk kelajakka qarab eltadigan darg'alar sifatida ayrica mehr bilan ta'riflar edi. U kishi: "Men aytgan iste'dodli yoshlar bilan qalin do'st bo'li", deganlarini hech qachon unutmayman".

To'lepbergen Qaipbergenov ustoz Abdulla Qahhor ishonchini oqlab, katta yozuvchi bo'lib yetishdi. Yirik romanlar yozib, qoraqalpoq va o'zbek adabiyotini boyitdi. Ustoz Abdulla Qahhordan so'ng yozuvchining asarlarini Ilyos Muslim, O'tauli, Muzaffar Ahmad va boshqa ijodkorlar o'zbek tiliga o'girdi.

Ayni vaqtda Ibroym Yusupov she'rilarini ilk bora yigirmanchi asr she'riyatimiz darg'alari Mirtemir, Zulfiya o'zbek tiliga tarjima qilgan. Alloma shoir G'afur G'ulom yosh ijodkorga duo bergan. Ushbu ibratli ustozshogirdlik munosabatlari va ijodiy hamkorliklarni Ibroym Yusupov she'rilarida takror-takror ta'kidlab o'tgan.



Har bir ko'chasida mehmon bo'lganman Shayxontohur, Qo'yliq, Eski Jo'vasin. So'zin tinglab, necha marta olganman G'afur, Oybek, Mirtemirlar duosin... Zulfiya yaratasa shohona baytlar, Tinglaganmiz, go'zalligini sezganmiz. Abdulla Oriflar, Erkin Vohidlar Bilan pastqam qolmay, birga kezanmiz.

Ibroym og'aning she'r-u dostonlarini Shuhrat domla, Jumaniyoz Jabborov, Aziz Abdurazzoq, Barot Boyqobilov, Husniddin Sharipov, Normurod Narzullayev, Abdulla Oripov, Ma'ruf Jalil, Muhammad Ali, Oydin Hojiyeva, Omon Matjon, Muzaffar Ahmad, Yangiboy Qo'chqorov kabi ko'plab ijodkorlar o'zbekchaga tabdil qilgan. Og'aning she'rilarini bugungi yoshlar ham ona tilimizga o'girayotgani quvonarli holdir.

Ibroym Yusupov "Toshkentlik do'stlarimga", "Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqting", "Men Toshkentni sog'inaman ko'rmasam", "Mustaqillik maydonidan o'tganda" kabi she'rilarida do'stlik, vatanparvarlik, og'zibirchilik, mustaqillikka sadoqat tuyg'ularini yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan.

Men Toshkentni sog'inaman ko'rmasam, Yozda Anhor bo'ylarida yurmasam, Shirinzabon o'zbek shoirlaridan G'azal tinglab, men she'r o'qib bermasam, Men Toshkentni sog'inaman ko'rmasam.

To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroym Yusupovning taqdiri bir, ijod yo'li bir, kuylangan mavzulari bir, orzu-maqсадlari mushtarak. Bir yurtda, bir yilda, bir oyda tug'ilib, yuraklari bir-biriga hamohang urgan ulug' ustozlarning asarlarini bugun qayta-qayta o'qiyamiz, ibrat olamiz.

To'lepbergen Qaipbergenov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga serqatnov edi. Samimiy va oqko'ngilligi, ayniqsa, yoshlarga mehribonligiga ko'p guvoh bo'lganman. Bir safar shogirdi Allanazar Abdiyevni ergashtirib keldi. Uning "Eran Saxiy" nomli qissasini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mas'ul kotibi, nasr kengashi adabiy maslahatchisi, taniqli adib Rahimjon Otayevga tarjima qilish uchun tavsiya qilganida o'ta muhim yumushni ado etganday qoniqish hosil qilganini sezganman. Asar "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilib, Allanazar kitobxonlar mehrini qozondi.

Ko'pchilgimiz To'lepbergen og'aning o'g'itlarini, savollarimizga bergan javoblarini hamon eslab, bir-birimizga gapirib yuramiz. Ustozning chechanlik bilan aytgan fikrlari, tesha tegmanga iboralari, topqirliqizni bizni hayratlantirardi. Bir gal kimdir To'lepbergen og'aga: "Hammualiflikda yozilgan asarga qanday qaraysiz?" deb savol berib qoldi. Unga shunday javob bo'ldi: "Hammualiflikda yozilgan asar xuddi bir mashina rulinii ikki kishi boshqarganga o'xshaydi. Agar mashina halokatga uchrasa, kimni ayblab, jazoga tortishni bilmaysiz".

Ustoz yana bir suhbatda hayot va ijod yo'lini sarhisob qilib: "Mustaqillik hayotimdagi eng quvonchli, eng muhim voqeadir!" degan edi. "Vatanparvarlik nima?" degan savolga esa shunday javob bergandi: "Vatanparvarlik – bu birinchi navbatda, xalqiga, Vatanga chin ma'nodagi muhabbat. Rus yozuvchisi Aleksey Nikolayevich Tolstoyning so'zlari bilan aytganda: "Vatanparvarlik – bu o'zingni vatanning ajralmas bir bo'lgi sifatida his etish, uning o'tida yonish, suvida qaynash. Nafasining uzilgandan keyin uning muqaddas tuprog'iga singib ketishni orzu etib yashash".

Ibroym Yusupovning Vatanga, el-yurtga xizmat qilish g'oyalari bilan sug'orilgan she'rleri hamisha dolzarb bo'lgan. Shoir she'rleri qanotli iboralarga, falsafaga boy.

Yerga xizmat qilmay po'lat paznalar Yuzlari yaltirab ochilmas zinhor. Elga xizmat qilmay kuchli yigitlar, O'zni erkak sanab kerilsa, bekor.

Hikmatli so'zga aylanib ketgan ushbu misralarida inson hayotining mohiyati nimadan iborat ekani yorqin ifodalangan. Omochning yerni shudgor qiladigan temir tishi qoraqalpoqchada "pazna" deyiladi. Ekin ekib, dehqonchilik qilgan kishi yaxshi biladi: ketmon yerni qanchalik ko'p chopsa, temir yuzi shuncha yaltirab ochiladi. Pazna ham qanchalik ko'p shudgor qilsa, uni tuproq shuncha yarqiraytib yuboradi. O'z navbatida yer mehnat qilgan kishidan saxovatini ayamaydi. Hosil mo'l bo'lsa, xalq to'q bo'ladi. Ishlatilmay, bekor yotgan mehnat quroli esa zanglab qoladi. Pazna-omochlar, ketmon-u belkuraklarni doimo ishlatib turadigan zahmatkash insonlar kerak el-yurtga. Shoir hayotdagi ana shu misoldan kelib chiqib, yigitlar qanchalik zo'r va barvasta bo'lmasin, agar o'z el-yurtiga, xalqiga xizmat qilmasa, ular erkak sanalmaydi, degan teran mazmunli fikrni ifodalaydi. Tashxis, parallelizm, istiora san'atining yorqin namunasi Ibroym Yusupovning she'rida olmosday jilolanadi.

Cheksiz dashtlar, bepoyon kengliklar tabiati, u yerlarda yashayotganlarning beg'ubor ko'ngli, mardona fe'li qanotli so'zlar, ko'p qatlamli iboralar bilan ifodalandi.

Odanning sillasini quritadigan issiq ob-havo, saroblarni mavjlantirib, ko'zni tindirib yuboradigan quyosh shoir she'riyatida chiroyli, mehribon, saxiy qiyofada tasvirlanadi. Yurakdan chiqqan so'zlar jonajon Vatanga otashin muhabbat izhori bo'lib yangraydi. Vatanni sevgan odam, uning ofobini ham, cho'lini ham, bo'stonini, jazirama issig'ini ham, qahraton sovuq'ini ham sevadi.

Chumchuqdan kim qo'rqsa ekmaydi tariq, Issiq-sovuq'iga ko'nikdik butun.

Olimasi choynakday To'rtko'l bog'larlari Kunsiz axir qanday pishmog'i mumkin? Issiq-sovuq degan sifatlarda fizik hodisanigina anglatmaydi. Ular ruhiy holatni, azob-uqubat, g'am-u shodlik kabi tushunchalarni ham bildiradi.

Mana, quyoshning yana bir sifatini shoir qanday ranglar bilan beradi:

Bug'doyrang bolalar yuzidan bu dam Amu suvi bilan tomar kun nuri.

Bu daryoda cho'milayotgan bolalarning oddiygina surati emas. Amudaryo bo'yida tug'ilgan, o'tdan chiqib suvga kirib, suvdan chiqib o'tga kirib yashayotgan elning timsoli chizilgan bu she'rda. Ona daryoda badanlaridan suv tomchilab cho'milayotgan bug'doyrang bolalar. Quyosh nurida yuzlaridan ter oqib yugurayotgan bug'doyrang bolalar...

Ibroym og'a "Ayt sen Ajiniyoz qo'shiqlaridan" nomli she'rida mumtoz shoirlarning so'z san'atida yaratgan sinoatlarini, so'zning qudratini betakror timsollar vositasida tasvirlaydi:

Yulduzlarni yerga qaratmoq bo'lsang, Yomon shoirlarni uyaltmoq bo'lsang, Agar men o'lganda tiriltmoq bo'lsang, Ayt sen Ajiniyoz qo'shiqlaridan.

Shoirni qayta tiriltiradigan kuch – she'r, Ajiniyoz kabi shoirlarning o'lmas va umrboqiy she'ri.

Ibroym Yusupov va To'lepbergen Qaipbergenov ham ana shunday umrboqiy hayot, umrboqiy ijod sohiblaridir. Ikki ulug' ijodkordan bizga ulkan adabiy meros qolgan. Ularning asarlarini tarjima qilish, o'rganish va targ'ib etish davom etadi. Uchinchi Renessans maqsadini ko'zlab ahillikda mehnat qilayotgan xalqimiz uchun ikki qahramon adibimizning hayot va ijod maktabi saboqlari muhim ahamiyatga ega.

Rustam MUSURMON, Qoraqalpog'iston xalq shoiri

JAHON AYVONIDA

SIRLI AQSH

AQSHning sobiq prezidenti Barak Obamaning aytishicha, agar hukumat haqiqatan ham o'zga sayyoraliklar bilan uchrashganida, buni uzoq vaqt sir saqlab qololmas edi. Bu haqda u "CBS" telekanalidagi intervyusida aytib o'tgan.



Obamaning so'zlariga ko'ra, Vashingtonda sir saqlash kafolatlanmagan.

Sobiq prezidentning fikricha, aynan shu sababli agar "AQSH hukumati nazoratidagi qandaydir jism" haqiqatan ham payqalgan, ko'rilgan yoki suratga

olingan bo'lsa, bu ma'lumot ertami-kechmi nafaqat hukumatga, balki jamoatchilikka ham oshkor bo'lar edi.

ROBOT-ROHIB



Janubiy Koreyada robot maxsus marosim orqali buddaviylar jamoasiga qabul qilindi. Bu haqda "Yonhap" agentligi xabar berdi.

Marosim Joge Order buddaviylik ordenida bo'lib o'tdi. Seuldagi tadbir davomida inson-rohib: "Muqaddas ta'limotga o'zingni bag'ishlashga tayyormisan?" deb robotdan so'ragan. Robot esa: "Ha, men unga o'zimni bag'ishlashga tayyorman", deb javob bergan.

Shundan keyin ruhoniy ustoz robot uchun maxsus moslashtirilgan beshta buddaviylik

qoidasini tushuntirgan. Ular orasida: hayotni hurmat qilish va zarar yetkazmaslik, boshqa robotlarni buzmaslik, insonlarga quloq solish va ularga qarshi chiqmaslik, so'zda ham, harakatda ham aldamaslik, energiyani tejash va ortiqcha quvvat olmaslik kabi qoidalar borligi aytilgan. So'ng robotga buddaviy "Gabi" nomi berilgan.

BEZORI O'QUVCHILAR KALTAKLANADI

Singapur maktablarida yangi qoida joriy etildi. Endilikda boshqalarni haqoratlagan yoki bezorilik (bulling) qilgan o'g'il bolalar, jumladan, kiberbezorilar ham tayoq bilan kaltaklanishi



mumkin. Jazo oxirgi chora sifatida qo'llanadi. Bu haqda "The Guardian" xabar berdi.

Parlamentda muhokama qilingan yangi qoidalar qo'ra, o'g'il bola o'quvchilar tayoq bilan uch martagacha urilishi mumkin. Ta'lim vaziri Desmond Li qonunchilarga ushbu jazoning qo'llanishi bo'yicha tushuntirish berdi. Uning aytishicha, kaltaklash jazosi faqat boshqa barcha choralar natija bermaganda va qoidabuzarlik juda og'ir bo'lganda qo'llanadi.

"QAMAL"DAGI KEMALAR



Yaqin Sharqdagi urush tufayli Fors ko'rfazida 20 ming dengizchi qolib ketgan. BMTning ogohlantirishicha, Hormuz bo'g'ozini yopilishi oqibatida kemalar ekipaji "qamal"ga tushib qolgan. Bu haqda "CNN" xabar berdi.

BMTning Xalqaro dengiz tashkiloti vakili Demien Shevale bu holatni gumanitar inqiroz deb baholadi. Uning so'zlariga ko'ra, dengizchilar sakkiz haftadan beri ochiq dengizda qolmoqda va bunday holat ilgari hech qachon kuzatilmagan.

KOREYA BIRLASHMAYDIMI?



Shimoliy Koreya o'z konstitutsiyasidan Janubiy Koreya bilan birlashishga oid barcha bandlarni olib tashladi. Bu haqda "Deutsche Welle" xabar berdi.

Bu Pxenyang 1948-yildan beri ta'kidlab kelayotgan siyosatidan oshkora voz kechganini anglatadi. Bungacha mamlakat rasman birlashish yo'lidan borishini aytib kelardi.



Boshlanishi 1-sahifada.

– Churra?! Umurtqadan bo'lsa, roziman. Siz bor-ku!?

Yunus aka kulib yubordi.

– Ustozing zo'r jarroh, – dedi "Chag'oniyon"ning bosh muharriri Zoyir Mamajonni nazarda tutib. – Sen orqadan urilgan pichoq emas, skalpelsan. Umurtqamni qutqarding. Maslahatim – qurol bo'lma! Ayniqsa, o'z ustozingga qarshi. Ana shunda uzoqqa borasan. "Qo-och, Hojiqulov...!"ni sen yozgansan-a!?

– Hammualliflikda. Egam Do'st bilan.

Gap shundaki, 2003-yili bir maktab paxta mavsumida kunlik rejani bajarmagani uchun tuman hokimining birinchi o'rinbosari direktorni quvalab urgan, "Qo-och..." shu haqda edi. Yunus aka kimlardanman, urug'-aymog'im, qavm-u qarindoshlarim kim, erinmay surish-tirdi: "U bunday, bu unday... Sen bu fe'lni, – qitmirligni demoqchi, – kimdan olgansan?!"

Qisqasi, o'sha kuni men... o'zim bilan tanishdim.

2. MEN KIMMAN?!

Koinot – eniga ham, bo'yiga ham yuz million yorug'lik yiliga teng masofani o'z ichiga olgan, lahza sayin kengayib borayotgan doira. Bu doira ichidagi katta-kichik yulduzlar-u galaktikalar, qora tuynuklarning son-sanog'i yo'q. Ular oldida Yer shari qum zarrasidagi, balki undanm milliard barobar kichik bir zarra, shu "zarra" ichidagi odamni-ku, endi, aytmasa ham bo'laveradi, yo'qligining yo'qligi darajasida. Shunday ekan, men kimman o'zi, bunday ulkanlik oldida qanday qadr-qimmatga egaman?!

Ha, koinot shu qadar ulkan doiraki, Yaratgan Egam, istasa, bunday doiradan ming, millontasi ham gapmi, cheksizlikning cheksiz darajasi miqdorida yaratishga qodir! Va bu... Uning uchun ko'p nuqta qo'yishday gap. Ana shunday qudratli va buyuk Zot...odam bolasidan trillion marta katta dunyoni pashshaning qanoticha ko'rmay, pashshaning qanoticha chiqmaydigan Odamni o'z xalifasi, yerdagi o'rinbosari deb bildi. Uning nazida, demakki, mening ham qandaydir qadr-qimmatim bor, arzimas bir narsa emasman. O'zinni na yerga urishga, na ko'kka ko'tarib, kibrlanishga haqqim bor, chunki "hech"lik holimda qandaydir ahamiyatga egaman. Meni shunday buyuk e'tiborga noil qilgan o'sha "hech"likning mohiyati nimada? Yanayam soddaroq aytganda, bu qadar o'z, bu qadar "hech"ligimga qaramay, meni dunyolardan ahamiyatliroq qilgan qadr-qimmatim, mazmunim nimada: genimdami, "men"imdami? Ishqatlabligim, balki... "Shuhrat"ligim uchun "Aziz"dirman (hazil)?!

3. MUHTARAMLIK

Maktabda bizga astronomiya fani o'qitilmagan, mutaxassis yo'qligidan. O'roqov esa kosmik ilmlar ishqibozi, tiriklik evolyutsiyasida osmonning "qo'li" bor, chunki dengiz suvi oy ta'sirida ko'tarilgan vaqtadagina bir hujayra ikkiga bo'linadi va bu – ko'payish jarayonining aynan o'zi, deb hisoblardi. Yolg'iz qolgan kezlarimda Yunus akaning ko'zi bilan osmonga qarab, shuni bildimki, nafaqat koinot, hatto Vaqt bir nuqtadan boshlanib, boshqa bir nuqtada tugaydigan, zamonsiz makonlar bor ekan. Qizig'i, o'sha zamonsiz makonlar ham, jannat-u do'zax ham, kashf qilganim sari tobora ulug'lashib borayotgan Allohning azamati va qudrati ham... anglaganim sayin battarroq hech-lashayotgan aqlimga, o'zimga sig'ar edi. Biroq yorug'lik tezligidan tez xayolim u yoqda tursin, burnimdan narini ko'rmaydigan torgina ko'zimga siqqan cheksizlikning loaqal bir zarrasi mendan trillion marta katta bo'lsa-da, bu dunyoga sig'masdi.

– Kichiklik – bu qadrsizlik, degani

SO'ROQ OSTIDAGI NUQTA



emas, – tushuntirgandi Yunus aka. – Koinot qarshisidagi "hech"ligimizga kelsak, bu – fizikaning haqiqati. Qadr haqidagi savol esa ma'no olamiga oiddir. Ma'no olamida yaratilgan katta-kichikligi ahamiyatsiz. Zero, Alloh chumolini yaratishdan uyal-magan; chunki atom kichik, ammo u olamning asosini tashkil etadi; neyron ham mikroskopik, ammo millionlab neyronlar ongni, tafakkurni, "men"ni paydo qiladi. Inson ham xuddi shunday: fizikada – zarra, ma'no olamida – markaz.

Islom ta'limotiga ko'ra, inson qadriining manbasi – "ruh". Chunki Alloh unga o'z ruhidan puflagan. Bu – ilohiy salohiyat degani. Ilohiy salohiyat esa aql, iroda, ifoda, mehr, tasavvur, ijod, tanlash mas'uliyati demakdir. Ya'niki, Inson koinotdagi barcha jonzotlardan farqli ravishda yaxshilikni yomonlikdan ajratadi; ma'no qidiradi; yaratishga intiladi; tanlaydi; javobgarlikni his etadi; o'zini va borliqni anglashga urinadi.

– Koinot har qancha katta bo'lmasin, o'zini anglayolmaydi. Inson esa kichik, lekin u o'zicha borliqni idrok etadi. Bu g'aroyib paradoks: kattalik qadri belgilamaydi; idrok belgilaydi. Xo'sh, bu o'rinda Insonning "xalifa"ligi, asliyat qanday ma'noga, qanday ahamiyatga ega?

– Mohiyatan, "xalifa" – hukmdor emas, balki mas'ul, amin, yaratish, o'zgartirish, muhofaza qilish qobiliyatiga ega mavjudot. Alloh avval koinotni, so'ng unga ma'no beruvchi mavjudot – insonni yaratgan. Ana shu ma'no inson qadri belgilaydi: sen yarata olasan, sen sevishing, kechirishing, irodang bilan yomonlikdan qaytishing mumkin; va nihoyat, SEN... ma'no topa olasan! Bu sifatlari fizikada emas, genda emas, ruhiy mohiyatda aks etadi.

Insonning qadr-qimmatini – uning ma'no yaratish qobiliyatida. Qadri-mizni belgilaydigan narsa jismimiz ham, aqlimiz ham, jonimizning biologik funksiyasi ham emas. Odamning tom ma'nodagi qadri – anglash, sevish, ixtiyor erki, mas'uliyat, ma'no yaratish, yaxshilik qilish layoqatidir.

– Inson azizmi?

– Aziz, chunki u o'zgartirishga qodir. Aziz, chunki u "men" deganida, butun borliqqa munosabatni belgilaydi. Aziz, chunki yomonlikka qodir bo'lsa-da, yaxshilikni tanlay oladi. Aziz, chunki o'zi juda kichkina bo'lsa ham...niyat va irodasini cheksizlikka yo'naltirishi mumkin.

Ha, Inson cheksiz kichiklikda cheksiz ma'no tashuvchi mavjudotdir. Uning qiymati jismida emas, balki aqlida – borliqni idrok qilayotganida; qalbida – mehr va insofda; ixtiyor erkida – tanlovda; amalida –

yaratuvchilikda; imonida – ma'noni tan olishida.

– Siz aytgan o'sha Insonni o'ziga xos qiladigan markaz – ruhiy o'zak – boshqa hech bir narsada, hatto koinotda ham yo'q. Shuning uchun ham men cheksizlik ichidagi zarra emasman. Cheksizlik ma'no beruvchi zarradek mavjudotman. Ma'no berish uchun esa "men"ga abadiy ilhom eliksiri – muhabbat kerak.

4. MAJNUNDAN MAKTUB

"...Hayot shunday dengizki, undan bir qultum ichdingmi, tamom, chanqog'ing bosilish o'rniga ortib darajaga yetadiki, o'rta dengiz ham chanqog'ingni qondirilmay qoladi. Ichadiganing – xoh bir tomchi, xoh osmoncha bo'lsin, xohish-impkoning qandayligidan qat'i nazar, uni tafakkuring doirasida qayta ishlashing shart; ana shundagina bu sho'r dengiz... atigi bir tomchisi bilan... cheksiz chanqog'ingni qondirishga qodir bitmas-tuganmas obi hayot manbayiga aylanadi. Aks holda, shu cheksiz va tubsiz ummon qat'ida... tashnalikdan nobud bo'lasan.

Muhabbatdan o'sib chiqqan aql, imon va manfaat birligi – bamisoli dengiz suvini ichimlik suviga aylantiradigan noyob texnologiya; u nafaqat o'z peshonang, butun dunyoning sho'rini aritadigan eng ishonchli, eng beqadr qurilmadir. Agar sen bu hayot ummonining loaqal bir qatrasini o'sha qurilma chig'irig'idan o'tkazib ichsang, aniq his qilasang, bu teskari dunyoning mantig'iga ko'ra, har qanday manfaat shunchaki odamgarchilik yo mehr-shafqat tamoyiliga emas, shafqatsiz aniqlikdagi hisob-kitobga asoslangan; bunday qat'iy o'chov birligi nafaqat ma'naviyatni, kerak bo'lsa, butun tamaddunni boshqarib, bizni... armageddon'ga yaqinlashtiradi.

Asosi muhabbat bo'lgan manfaatning hisob-kitobi mutlaq teskari: "berganing – o'zingniki, yiqqaning – zarar" mantig'iga tayanadi. Chinakam oshiqlik mezonni, talabi ham aslida shu – cheksiz mehr ber va ol. Har birimiz nafaqat odamzot, balki nabotot va hayvonot olamini ham xuddi oshiq o'z ma'shuqasini sevirardoqlaganday chin yurakdan seva olsaydik, bu dunyoda hech qanday ziddiyat, muammo qolmasdi. Tabiat va hayvonot olami bilan o'zaro munosabatni mehr-muhabbat bilan tartibga solsang, sen uchun yirtqichlar beozor-u kiyiklar botir bo'lib qoladi. Odamlar shuguna haqiqatni tushuna olmagani uchun ham men cho'l-u biyobonga bosh olib ketdim va haqligimni – muhabbatning kuch-qudratini amalda ko'rsatdim.

Men kirgan chin sevgi yo'lida oshiq zotining tushunmovchilik qurboni bo'lish ehtimoli katta, shunga qaramay, ishq ahidan cheksiz-cheksiz yaxshilik qilish qurbi va matonati talab qilinadi. Cheksiz yaxshilik qilish qurbiga ega bo'lsang, imoning komil bo'lsinki, himmating

va jasorating bilan bu teskari dunyoni o'ngarib qo'yishga qodirsan.

Boshini silasang, qo'lingni tish-laydigan zot, agar u yirtqich, xoh undanam tubanroq maxluq bo'lsin, hech ikkilanmay qayta-qayta yaxshilik qilaversang, albatta, yengiladi va senga el bo'ladi. Faqat yaxshilik qilishdan to'xtamasang, umidsizlanmasang bo'lgani. Umidsizlik bu, bor-yo'g'i, sening psixologik yuklamang, "bo'ldi, endi hammasi tugadi", deb o'zingni ishontirgan yolg'oning, xolos. Aslida, bu dunyoda hech qanday umidsizlikning o'zi yo'q: so'raganingni bersa – chinakam mo'minsan; kechiktirib bersa – shukri, qanoatli, sabrli bandasan; umuman bermasa – suyukli do'stisaniki, Yaratgan Egang oxiratda, albatta, ziyodasi bilan berajak, bunga hech qanday shakshubha yo'q. Shuning uchun ham qiyomat bo'lib qolsayam, ekmoqchi bo'lib turgan ko'chatning, albatta, ekishing kerak..."

Ha, agar men Majnun bo'lganimda, olis kelajakka, oxirzamon odamlariga xuddi shu mazmunda xat bitgan bo'lardim.

5. SAVOLLAR

Afsuski, men Majnun emasman. Nega? Oshiqlik qonimda yo'qmi? Ulug'vorlikning suyak surishi xom-xayol bo'lsa, nega aynan Ergash Jumanbulbulning nevarasi Javohir Sidorov dunyoni lol qoldirib, 19 yoshida shaxmat bo'yicha jahon kubogini qo'lga kiritdi? Suyak suradigan daholik, gen nima o'zi? Agar buyuklik qon sursa, odamzotning geni, DNKsi vaqt o'tishi bilan o'z xususiyatini o'zgartiradimi? Yo buyuklikka o'xshab tubanlikning ham qon surishi tabiiyimi? Unda nega vaqti-vaqti bilan Yer yuziga payg'ambarlar yuborib turilgan? Nahotki, Hobilni o'ldirgan Qobilning geni tobad suyak sursa-yu, Majnunning muhabbati yo nubuvvat nuri muayyan muddatdan so'ng o'z kuchini yo'qotsa?! Bugun ilmi bilan Marsni zabt etgan odamzotning geni o'z sifatini, ezigulik xususiyatini yo'qotgan bo'lishi mumkinmi? Nahotki, bugun biz nainki nabotot, hayvonot olami, loaqal o'zimizni sevishga qodir bo'lmasak? Bizga nima bo'lyapti o'zi? Nega o'tgan asrda Yer yuzida bir emas, ikki jahon urushi bo'lib o'tdi-yu, butun dunyo aholisi bir-birining "go'shtini yedi", kamiga, yana uchinchi jahon urushi ostonasiga kelib qoldi? Nega?!

Ekologik fojialar-chi, bunga ham inson omili sabab emasmi? Bir qarasang, saxovatli kuzdan bir tomchi obirahmat yo'q. Butun el yolvorib yomg'ir so'raydi. Yana bir qarasang, dunyo aholisi so'nggi 30 yilda 2 trillion 300 million tonna suvni yer bag'ridan "sug'urib olib" ichib qo'ygan; shimoliy va janubiy qutb muvozanatini yo'qotib, Yer shari o'z o'qidandak siljigan; Kavkaz tog'lari o'sib, Kaspiy dengizi chekingan; Orol qurigan; Yer yuzidagi boshqa ko'plab chuchuk suvli ko'llar ham qurish arafasida; qurg'oqchilik; Eron poytaxtining ko'chirilishi aynan shu o'zgarishlarning jiddiy dalili sifatida talqin qilinayapti; nega?!

Hayotni mutolaa qilib bilganim: javobi behisob savolman, ammo mudom bir-biriga o'zaro g'anim Odamzot uchun "Men" chigal muammo. Toabad ohimdan chiqadi tutun, shafqatsiz tuyular hayot sabog'i. Yechsam, chiqaverar tugundan tugun, savol chiqaverar, yo'qdir adog'i. Aslidan uzoqlab nasillar "men"ni, asllar naslidan abad uyatda. Aynirmi yo Odam Atoning geni dosh bera olmasdan abadiyatga?

6. GEN ABADIYMI?

Fleshkamdagi eski qaydlarni tekshirayotib, 2007-yilda yozilgan bir maqolaning xomashyosini topib oldim. Matn hafসাla bilan yozilgan-u "Chag'oniyon" ijtimoiy-siyosiy gazeta bo'lgani uchunmi, negadir, ilmiy-falsafiy farazlar maqoladan chegirib qolingan. Yuqoridagi musohaba ayni fikrlarning qaymog'i edi. O'shanda Denov tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i, gemotolog Yunus O'rovqovga shunday savol bergan ekanman:

– Ishonchim komilki, Odam Ato bilan ichki va tashqi tuzilishimiz, qonimiz ham, ko'zyoshimiz ham bir xil. Oramizdan qancha vaqt, davr-u davron o'tdi, bilmayman, ammo o'zaro umumiylikimiz mutlaqo o'zgaraganmi, shubhasiz. Xo'sh, Odam Atoning geni, DNKsi abadiyatga dosh bera oladimi?

Qonshunos akamiz bu savolga uch yo'nalishda javob bergan ekan:

1. Biologik jihatdan: DNK – organizmning qurilish loyihasi. Nasldan naslga o'tadi. Odam Ato bilan sizdagi umumiy DNKning asosiy qismi bir xil tartibdagi kodifikatsiyaga ega. Chunki bu biologik turning o'zi shundan iborat. Ammo DNK abadiy emas. Mutatsiyalar va o'zgarishlarga uchrab, vaqt o'tishi bilan genda oz-ozdan o'zgarishlar yig'iladi. Telomerlar – xromosomalarning uzluksizligini ta'minlovchi qismlar qisqaradi. Evolyutsiya bosimi genni muhitga moslashishga, o'zgarishga majbur qiladi. Irsiy yo'qotishlar bo'ladi, ba'zi genlar avlodlarda yo'qoladi, ba'zilar paydo bo'ladi. Shuning uchun biologik ma'noda DNK abadiyatga "dosh bermaydi" – u o'zgaradi, evolyutsiyalanadi, ba'zan yo'qoladi. Ammo... U abadiylikka "talpinadi". Ko'payish orqali o'zini davom ettiradi. Odamzot to tirik ekan, uning DNKsi ham mavjud bo'ladi, garchi shakllari o'zgarsa ham.

2. Falsafiy jihatdan: Inson DNKsi vaqtga va jismga bog'liq. Abadiylik esa vaqtdan mutlaqo xoli. Shuning uchun DNK abadiy emas, lekin doimiy; Ruh abadiy (din nuqtayi nazaridan); Biologiya insonning moddiy asosini beradi, lekin abadiy maqomni ma'no, ruh va ong beradi.

3. Ma'naviy jihatdan: Islom ta'limotiga ko'ra, yaratilgan har bir jism vaqtinchalik; Insonning qimmatini uning DNKsidan emas, ruhidan, imonidan va amalidan keladi; Qur'onda insonning abadiylikni guvohlik, niyat, aql va ruh bilan bog'lanadi, moddiy tuzilma bilan emas. Abadiylik – biologiyada emas, ma'naviyatda.

– Demak, – xulosaladi Yunus aka, – Odam DNKsi biologik ma'noda abadiy emas. U o'zgaruvchan, muhitga moslashadi, mutatsiyalanadi, ba'zi qismlari yo'qoladi. Ammo inson zoti bor ekan, DNK davom etadi. Shaki o'zgarishi mumkin, lekin umuman yo'qolib ketmaydi. Insonni abadiy qiladigan narsa DNK emas, ruhiy mohiyatidir. Qadr-qimmat ham shunda.

Buni qarangki, oradan 19 yil o'tib, 2025-yil 21-noyabr kuni "Kun. uz" sayti ayni fikrlarga hamohang quyidagi xabarni tarqatdi:

7. O'ZBEKISTONLIK LARDA DUNYODA NOMA'LUM GEN O'ZGARISHLARI ANIQLANDI...

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi (ayni paytda zamonaviy laboratoriyalar jamlangan

bu ilmiy muassasada biotexnologiya, genetika, nanotexnologiya va sun'iy intellekt sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib boriladi) olimlari mamlakat tarixida ilk bor inson genlarini chuqur o'rganish, ya'ni genlarni to'liq o'qish va tahlil qilish tadqiqotini o'tkazdi. Natijada o'zbekistonliklarda ilgari dunyoda noma'lum bo'lgan o'nlab yangi gen o'zgarishlari aniqlandi. Olimlar topgan ma'lumotlar xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritildi. Ta'kidlanishicha, bu O'zbekistonning jahon genomika fanidagi o'rmini mustahkamlaydi.

Tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda qatnashgan har ikkinchi bolada irsiy mutatsiya bor. Ya'ni, kasallikka moyillik irsiy yo'l bilan o'tayotgani aniqlangan. Eng tashvishlisi, bolalarning 86 foizi hech bo'limganda bitta "buzilgan" gen tashuvchisi ekanligi ma'lum bo'lgan. Bu ko'rsatkich xalqaro me'yordan ikki barobar yuqori hisoblanadi. Olimlar bu holatni ayrim hududlarda qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ulushining yuqoriligi bilan izohlashmoqda. Masalan, ba'zi viloyatlarda bunday nikohlar umumiy nikohlarning choragiga yaqinini tashkil etadi.

Bu holat kelgusi avlodlarda faqat irsiy kasalliklar emas, balki umumiy sog'liq holatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, genetik mutatsiyalar nafaqat kam uchraydigan irsiy kasalliklar, balki diabet, yurak-qon tomir xastalıkları, onkologik jarayonlar kabi ko'p tarqalgan kasalliklarning ham rivojlanish xavfini oshiradi. Shu bois, bu kasalliklar nafaqat ko'payib borishi, balki ancha yosh avlodlar orasida ham namoyon bo'lish ehtimoli yuqori.

Shuning uchun olimlar nikohdan oldin juftliklarni genetik tekshiruvdan o'tkazish, bolalarni erta skrining va profilaktika dasturlariga jalb etish zarurligini ta'kidlamogda. Bu orqali kasalliklarni ilk bosqichda aniqlash va to'g'ri davolash imkoni yaratiladi.

Tadqiqot natijasida ko'plab muhim ma'lumotlar aniqlangan. Tekshirilgan bemorlarning yarmidan ko'piga aniq genetik tashxis qo'yilgan, bu esa shifokorlarga to'g'ri davolash usulini tanlash imkonini bergan. Aniqlangan mutatsiyalarning salkam uchdan bir qismi ilgari dunyo ilmfanida qayd etilmagan bo'lib, ular xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritildi. Shuningdek, ba'zi bolalarda bir vaqtning o'zida bir nechta irsiy kasallik belgilari aniqlangan. Bu holat mamlakatdagi qarindoshlik nikohlari darajasi yuqoriligini yana bir bor tasdiqlagan.

– Ilk bor xalqimiz genlarining haqiqiy manzarasini ko'rdik, – deydi Ilg'or texnologiyalar markazi direktori, "O'zbekiston aholisining genetik xaritasini yaratish va milliy biobankni shakllantirishga qaratilgan "O'zbekistonning 1000 genomi" loyihasi rahbari, professor Shahlo Turdiqulova. – Agar bolalarning ko'pchiligi yashirin irsiy mutatsiyalarga ega bo'lsa, profilaktika va genetik maslahat tizimimiz bu jarayonni to'xtatib bo'lmaydi. Shu bois, nikoh oldidan juftliklarni skriningdan o'tkazish dasturlarini joriy etish juda muhim.

8. XOTIMA


DNKning "isitma"si Yunus aka bir paytlar sinchkovlik bilan kuzatgan yashirin simptomlarni fosh qildi. Bugun u kishi oramizda bo'lganida, zamondoshlaridan kamida yigirma yil oldinda yurganini bilgan va, hoynahoy, shunday degan bo'lardi:

– O'zlikni anglash-u ishqda-yu najot, negadir boqmaydi asliga inson. Nahotki, o'zidan ketgan odamzot O'ziga kelmaydi endi hech qachon? Tuyular goh olam so'roq ostida, mahzunman, sukutim uzoq uzundan. Eng katta so'roq ham, so'roq ostida Yer bo'lgan nuqta ham mening o'zimman.

– Yo'q, – deyman yana o'zimga o'zim. – Hozir ko'p narsaning iloji bor. Najot – ilmda.

Shuhrat AZIZOV

* Armageddon – qiyomat kuni.



“ Bir odamning emas, balki hamma odamlarning farog'atini ko'zlash hamisha muhim masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Lev TOLSTOY



MILLAT FIDOYLARI

Yaqinda davlat xavfsizlik xizmatlari arxivida jadid harakatiga doir yangi hujjatlarni o'rgandik. Tarixiy qiymati nihoyatda katta ushbu ma'lumotlarni gazetxonlar e'tiboriga havola etishni lozim topdik.

Tergov hujjatlarida ikki shaxs nomi diqqatimizni tortdi: Yunusjon hoji va Ne'matjon Og'aliqovlar. Ularning kechmishi o'sha qalits va tahlikali palladagi qatag'on suroni, taloto'plar, ayblov-u tuhmatlar mohiyatini ochib berishda muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Og'aliqovlarning inqilobgacha Qo'qonda iqtisodiy mavqeyi baland bo'lgan, otasi yirik qo'y savdogari, xonadon nufuzi mulkdor qatlamga mansub edi.

Ne'matjon Og'aliqov (1877-yili tug'ilgan) madrasa ta'limi olgan, dunyoqarashi diniy va milliy muhitda, Turkiston muxtoriyati davridagi harakatlarda shakllangan. Yunusjon hoji Og'aliqov (1884-yili tug'ilgan) esa yurt kezman, savdo bilan shug'ullanib, jamoat ishlarida faol shaxs bo'lgan.

Inqilobga qadar haj ibodatini ado etib, qator mutaraqqiy shaharlarda, jumladan, Istanbulda bo'lib qaytgan Yunusjon hoji safar davomida turli ma'rifiy muhit va islohotparvar qarashlar bilan tanishadi. Bu holat uning keyingi faoliyatida kuzatiladigan milliy uyg'onish va jamoatchilik harakatlariga qiziqishi bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, "Sho'royi islom", "Milliy ittihad" kabi tashkilotlarga a'zo bo'lib, Turkiston muxtor hukumati faoliyatida ishtirok etishida malaka vazifasini o'tagan. Hoji muxtoriyat halokatidan so'ng turli sohalarida ishlagan bo'lsa-da, hamma jabhada millat ravnaqi, yurt ozodligi uning uchun bosh maqsad bo'lgan. O'sha davrning tosh-tarozusiga ko'ra, bunday dunyoqarash nafaqat qabul qilinmas, balki mutlaqo kechirilmas hol edi. Qahramonimiz aksilinqilobiy faoliyati uchun qatag'onning ilk to'liqini – 1926-yili 7 yilga Sibirga badarg'a qilingan.

1932-yili Qo'qonga qaytgach, u millat ozodligi yo'lidagi aloqalarini tiklaydi. Hurriyatparvar tashkilot rahbari Ashurali Zohiriy, Abdulhamid

KIM JINOYATCHI?



Cho'lpon, G'ozii Yunusov hamda "Guliston" tahririyati kotibi Sodiqov bilan yaqin munosabatlarni qayta yo'lga qo'yadi. Ma'rifiy doiralari bilan yaqin aloqalari uni O'zbekiston davlat nashriyoti do'koniga rahbarligida qo'l keladi.

1937-yil iyul oyiga oid kuzatuvlardan Yunusjon hojining o'sha davrdagi hayoti ikki qutb orasida kechganiga guvoh bo'lamiz. Bir tomondan, u Toshkentda – olim G'ozii Yunusovnikida yashab, Cho'lpon kabi ziyolilar bilan yuzlashib turgan, ya'ni ma'rifiy muhitdan uzilmagan. Ikkinchi tomondan, uning suhbatlarida kundalik hayot muammolari – non narxining oshirilishi-tushirilishi kabi masalalar ham tilga olinadi. Bu esa qahramonimiz dunyoqarashi siyosiy doira bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy voqelikning eng oddiy, biroq o'tkir nuqtalari bilan ham uzviy bog'langanidan dalolat beradi.

Bu kabi mulohazalar yuri taraqqiysi uchun jon ko'ytgan fidoiy insonlar bilan uchrashuv va davralarda tobora charxlanib borardi. Biroq bunday suhbatlar doim ham erkin, xotirjamlikda kechmagan. Xususan, 27-iyul kuni Ashurali Zohiriy uyida o'tgan suhbatda maxfiy xizmat xodimining kirib kelishi gap o'znanini darhol boshqqa mavzuga – kitoblar va madaniy masalalarga burib

yuborgan. Ilg'ash qiyin emaski, bunday davralarda fikr almashish oson kechmagan. "Gupping qalin bo'lsa ham qishdan qo'rq, do'pping qalin bo'lsa ham mushtdan qo'rq", deganlaridek, ehtiyotkorlik davr taqozosi bo'lgan.

1937-yil iyul oyiga oid ko'rsatmalarda Yunusjon hoji bozorlardagi oziq-ovqat taqchilligi, turnaqator navbatlar va aholining og'ir ahvoldan yozg'iradi. U guruh topilmagan, moy uchun soatlab navbatda turishga to'g'ri kelgani haqida gapirar ekan, bu hol unda jiddiy xavotir uyg'otganini ro'yrostd keltiradi. Ko'rinadiki, uning mulohazalarida oziq-ovqat yetishmovchiligi tartibsizlik, ochlik va beqarorlikka olib kelishi mumkinligi haqida o'ylar ustun. Bu kabi mulohazalar o'sha davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy hayotga nisbatan tanqidiy munosabatning mavjudligini anglatardi.

Shu ma'noda, qahramonimiz esga olgan mana bu lavha o'sha davr ruhini o'zida mujassam etganday tuyuladi: "Bir kuni do'konimda kolxozchi kirdi, oq aroq so'radi, garchi bu yur kitob do'konini ekanini ko'rgan edi. Men unga aroq borligini aytib, bir butilka gummiarabiki (tabiiy mumdan tayyorlangan sharbat)ni berdim, u 3 rubl 70 tiyin to'ladi va ketdi". Bu gapdan keyin suhbat

ishtirokchilari, jumladan, Ashurali Zohiriy ham miyig'ida kulib: "Qarang, bizning kolxozchini qanchalik oson aldash mumkin. Sovet hukumati uni qanday qilib boqishga qiyalmaydi", deb kinoya qiladi.

Bu kabi holatlarda maishiy ehtiyojlar bilan ma'rifiy muhit o'rtasidagi chegaralar xiralashib, odamlar ongida muayyan chalkashliklar yuzaga kelgani seziladi... Bunday ziddiyatli muhit, tabiiyki, Og'aliqovlar sulolasi vakillari taqdirida chuqur iz qoldirgan.

Xususan, Ne'matjon Og'aliqov haqidagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, uning hayot yo'li ham o'sha davr siyosiy jarayonlari bilan bevosita bog'liq kechgan. Savdogar oiladan chiqqan, madrasada ta'lim olgan bu shaxs ilk bosqichdayoq "Sho'royi islom" va "G'ayrat" kabi tashkilotlarda qatnashib, keyinchalik Turkiston muxtoriyati davridagi harakatlarda ishtirok etadi, hatto hukumat tarkibiga kiradi. Biroq sovet hukumati iqtidoriga kelib, yer islohoti siyosatini yo'lga qo'ygan davrda bog' va yerlaridan mahrum etilishi uning ijtimoiy mavqeyiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu paytdan e'tiboran manbalarda uning sovet hukumatiga nisbatan norozilik kayfiyati anglashiladi. Keyingi taqdiri aynan shu qarashlarga doxil kecharoq, "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi sifatida ta'qibga uchraydi, hibsga olinib, uch oy qamoqda saqlanadi.

Ne'matjon Og'aliqov qamoqdan so'ng doimiy ta'qib tufayli faol siyosiy hayotdan chetlashib shahar shifoxonasida qiroatchi sifatida ishlashga majbur bo'ladi. Biroq sog'lig'idagi muammolar tufayli bu ish faoliyati uzoqqa cho'zilmaydi. Aniqrog'i, nogironlik vaji bilan ishdan bo'shatiladi.

Maxfiy kuzatuv materiallarida Ne'matjon Og'aliqovning o'zini "milliy harakatchi" sifatida qanday qabul qilgani masalasiga alohida e'tibor qaraladi. U 1930-yildan keyin bu faoliyatdan voz kechga-

nini ta'kidlasa-da, amalda o'zining avvalgi ayblovlardan xalos bo'lganini tan oladi. Uning huquq va qonun haqidagi mulohazalari esa o'sha davrdagi siyosiy tizimga nisbatan ishonchsizlikni ochiq ifoda etadi. "Men barchaga huquq beruvchi ochiq qonunni qidirmayman, chunki uning qonun riyoga qilinmaydi. Balki boshqa qonun bordir, uning ostida milliy harakatchilarga qiyanoq ko'rsatiladi va shu qonunga men ham kirib qoldim", deydi u.

Kundalik hayotdagi tangliklar uning mulohazalarida alohida o'rin tutadi. Bir gal ko'chada tanishi bilan uchrashib, o'z ahvoldan norozi ekanini bildirar ekan, aholi har kuni non uchun navbatda turishga majbur bo'lib, umri zo'ye ketayotganiga afsus bildiradi. Ayni kayfiyat shahar soveti oldida Zohiriy bilan qisqa muloqotda yanada ta'sirliroq namoyon bo'ladi. Garchi Ashurali Zohiriyning "Qayerga ketayotibisiz?" degan savoliga Ne'matjon Og'aliqovning "Non olishga", deb javob berishi oddiy holdek tuyulsa-da, u buni zumda kinoya bilan to'ldiradi. Oldiniga: "Har bir kishi o'z ko'z yoshlarini non oldida oqizsin", deb davom ettiradi.

Og'aliqovlarni qatag'onga tortgan omillar – milliy uyg'onish harakatlarda ishtirok etgani, "Sho'royi islom", "Milliy ittihad" kabi tashkilotlar bilan bog'liqligi, ma'rifiy doiralardan uzilmagan ularning jamiyatdagi kamchiliklarga nisbatan ochiq yoki kinoyal munosabati bilan o'zaro tutashib ketgan. Ana shu hurfikrlik kechirilmas "jinoyat"ga aylantirilib, oilaning ikki ustuni, ikki tayanchini jisman qulatgan bo'lsa-da, hamisha fikrida sobit bo'lgan bu insonlar ma'nadan tog'lar kabi mangu poydordir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Anqaboy Xudoybaxtov – 1905-yili Samarqandda tug'ilgan. 1916-yilda ota-onasi vafot etadi. 1918-yilgacha turli xo'jaliklarda batraklik qilib kun ko'radi. 1918-yilda Jomboydagi bolalar yetimxonasiga topshirib yuboriladi.

1920-yildan 1922-yilgacha Samarqand maorif institutida, so'ngra Toshkentdagi Lenin nomidagi kommunistik universitetda o'qidi. 1924-1925-yillarda Samarqanddagi "Zarafshon" gazetasi mas'ul muharrir o'rinbosari bo'lgan. 1925-1928-yillar davomida Moskvada jurnalistika yo'nalishi bo'yicha tahsil oladi. O'sha paytlarda xizmat safarida bo'lgan jaddilik harakatining taniqli vakillari jamoasida bo'lib, ma'rifatparvarlar bilan yaqindan aloqada bo'lgan. Moskvadan qaytib kelgach "Zarafshon" gazetasi mas'ul muharriri vazifasida ish boshlaydi. 1929-1930-yillarda Respublika kasaba sovyuzi organi "Ishchi" gazetasi muharriri, 1930-1933-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti partiya nashriyoti bosh muharriri, shuningdek, matbaachilar uyushmasi raisi sifatida faoliyat yuritgan. 1936-yildan Respublika radio komiteti raisi bo'lgan. 1937-yil 1-iyuldan radiokomitet raisligidan ozod qilingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrda yig'ilishida Anqaboy Xudoybaxtov otuvga hukm qilinib, hukm o'sha kuni ijro etilgan.

Alimbek Xidirov – 1904-yili Jomboy rayoni Tatar kishlog'ida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda o'qituvchi bo'lgan. Aholi orasida millatchilik targ'iboti olib borganlikda, uyida aksilinqilobiy adabiyotni saqlaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 20-avgustdan hisoblangan.

Usmon Akromiy – 1903-yili Namanganda tug'ilgan. Samarqand shahrida "Qizil O'zbekiston" gazetasi adabiy xodimi bo'lgan. 1929-yil 11-dekabrda OGPU xodimlari tomonidan "Milliy istiqlol"ning Namangan filiali kotibi bo'lgani, yangi a'zolarni tashkilotga jalb qilgani uchun hibsga olingan. OGPUning 1931-yil 25-preldagi qaroriga ko'ra RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-,10-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

Muhammad Hojibobo Rizayev – 1889-yili Namangan shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1920-yili sentyabrda Bokudagi Sharq xalqlari syezidga vakil bo'lib borgan. 1925-yili Sovet hokimiyatidan norozi bo'lganlarning hisobini olish va ularni aksilinqilobiy tashkilotga jalb qilish bo'yicha ish olib borgan. 1927-yili Toshkentga kelib Munavvar qori Abdurashidxonov bilan uchrashgan. 1931-yildan 1936-yil 29-dekabr gacha surgunda bo'lgan, surgundan qaytgach, u doimiy ravishda sovetlarga qarshi targ'ibot olib borgan. Masalan, 1937-yil boshlarida "Internatsional" arteliga yaqin joyda turib sovet hukumatining O'zbekistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini qoralab chiqqan. 1937-yil 30-iyulda shahar moliya bo'limi inspektori bilan bo'lgan suhbatda sovet hukumatini ayblagan. Hukumat konstitutsiyaga xilof ish tutgani, ongli ravishda aqli, savodli kishilarni O'zbekistonda yo'q qilayotganini aytdi. 1937-yil avgustda xalq dushmani deb qoralangan Fayzulla Xo'jayevning ishdan olinishiga norozilik bildirgan. 1937-yil 19-avgustda qamoqqa olingan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "uchligi" tomonidan 1937-yil 13-noyabrda otilgan. 1958-yil 31-mayda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonida).

JADIDSHUNOSLIK

TILIMIZNING ILK IMLO QOIDASI

Jadidlar millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili ekanini anglagan holda, xalqning milliy ruhini uyg'otish va ongini o'stirish uchun tilga alohida ahamiyat qaratdi. Ular rivojlangan davlatlar kabi o'z qonun-qoidalariga ega adabiy til yaratishni maqsad qilib qo'ydi. Shu bois, barcha choralarini ishga solib, o'zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqish va adabiy til sifatida mavqeyini oshirishga intildi. Zero, o'tgan asrning 20-30-yillarida xalq jonli tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zbek adabiy tili me'yorlarini belgilash g'oyat dolzarb vazifa edi.

Ma'lumki, boshqa turkiy xalqlar kabi o'lkamizda arab yozuvi ming yillardan ortiq davr mobaynida asosiy yozuv sifatida qo'llanib kelgan. Arab tilida unillir cho'ziq va qisqa unillarga bo'linishi, qisqa unillarning yozuvda ifodalanganligi, unillarning uchtagina harf bilan ifodalanishi, qolaversa, imlo qoidalarining yo'qligi jiddiy muammolardan edi, lekin bu muammo hech kimni qiziqitmasdi. Yangi usuldagi maktablarning ochilishi, ular uchun darslik va qo'llanmalar yaratilishi jarayonida bu muammolarni hal qilish kun tartibiga chiqdi. Ashurali Zohiriy 1916-yilda nashr ettirgan "Imlo" darsligida bu haqda shunday deydi: "Bizning hozirgi (eski) imlomizda qoida degan narsa aslo riyoga etilmaganligidan har kim o'zicha qanday yozmoqni xohlansa, o'shanday yoza berg'an; bu adabiyotimizning kengayishiga sad bo'lib, yoshlarimizning qiyalishidan boshqa ajnabiy millatlarning qoshida tilimizning masxara qildirib, madaniy tillarga baho qo'y'g'anda, qimmatli hech bo'lishiga sabab bo'ldik. Shunga binoan bul "Imlo" risolasini yozdim. Eng zarur qoidalarni darj etdim".

Bunday muammolarni Elbek ham qayd etadi: "Bizning bu kungacha qo'llanib kelmakda bo'lgan imlomiz iki turli edi: biri chig'atoy imlosi va ikinchisi eski imlo. Bu imlodan eski imlo atagan imlomiz burun choqlardan beri bir yo'sunsiz,

negizsiz yozilib kelmakda bo'lgan bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochiq anglov juda qiyindir. Chunki bir so'zni bir necha turli o'qimoq mumkin bo'lg'anliqdan kishi ko'b yangilshadir. Eski imlo yo'lsizlig'i uchun tashlanmoqdin boshqa chora qolmaydur".

Buning uchun arab yozuvini isloh qilish, unga o'zbek tilidagi barcha unillarni ifodalovchi harflar qo'shish, arab tiliga xos bo'lgan harflarni alifbodan chiqarish lozim edi. Bu mashaqqatli, shu bilan birga, xayrli ishni Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" o'z zimmasiga oldi. Gurung a'zolari tomonidan alifboga qo'shimcha harflar kiritiladi, shu isloh qilingan alifbo asosida dastlabki imlo qoidalari ishlab chiqiladi. Isloh qilingan alifbo loyihasi va imlo qoidalari 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyida Fitrat ma'ruzasida aytib o'tiladi.


Fitrat imlo rivoji uchun quyidagi takliflarni beradi:

1. Eski imlomiz buzuq, qoidasiz bo'lg'ani uchun maoripimizni bu imlo va yozu bilan kengaytmak mumkin emas. Maoripimizni kengaytmak va savodsizlikni bitirmak uchun imlomizni isloh etmak lozimdir.
2. Olti cho'zgi (unillil) imlo qabul etilsin.
3. Tilimizdagi yot so'zlar ham shul olti cho'zgi bilan yozilsin.
4. Har harp (undosh) va har cho'zgining o'ziga maxsus shakl bo'lsin.
5. Ust cho'zgilarni o'rni yozmoq uchun so'zlarning qalinlig'i, ingichkaligiga e'tibor etilsin. Tilimizdagi arap so'ziga ham shul to'rt modda qo'ldan kelganicha yuritilsin.
6. Harplarning shakli ikidan birga tushub, butun so'zlar bosh harp bilan yozilsun.
7. Tilimizdagi kirib qolgan yot so'zlar turkcha harplar bilan yozilsun".

"Bitim yo'llari" risolasi mazkur qurultoyda taqdim qilingan imlo qoidalarini o'z ichiga olib, isloh qilingan alifboda yozilgan. Risolaning maqomi bo'yicha turli mulohazalar mavjud. Tilshunos olim Sh.Bobomurodova uni Fitrat va Qayum Ramazon hammuallifligida tuzilgan

o'zbek tili nazariy masalalari yoritilgan eng birinchi ibtidoiy qo'llanma sifatida ta'rifiyladi. Qayum Ramazon uni imlo qoidalari deb ataydi: "Boshqa fanlarni qo'yib turaylik, maktablarimizning jon tomiri bo'lg'an "Til qoidalari" otig'a shu kungacha bir asar chiqmadi. "Bitim yo'llari" bilan "Yozuv yo'llari" esa imlodin bahs etar. Lekin bular ham darslik bo'lishdan yiroqroq bo'lsa ham (suv o'rnig'a tayammum qabilidan) yarab turar. Buning bilan til qoidalarini o'rganib bo'lmaydi. Maktablar uchun "Sarf" va "Nahv" kerak. "Sarf" va "Nahv"!

Bunday fikrlarning aytilishiga sabab, "Bitim yo'llari"da ham imlo qoidalari, ham qo'llanmaga xos xususiyatlar qayd etilganidir. Kitobning "Til bilan yozuvimizni belgili bir yo'lga qo'yub..." degan so'zlar bilan boshlanishiga ko'ra, u imlo qoidalarini anglatadi. Buni uning muqovasidagi "Imlo" yozuvi ham bildirib turibdi. Lekin asarni o'rganar ekanimiz, unda o'zbek tilining nazariy masalalari ham aks etganini ko'ramiz. Nazariy fikrlarni asarning barcha o'rinlarida qayd etish




mumkin. Risolada mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ham berilgan. Fikrimizcha, mualliflar uni yangi usul maktablari



TAVALLUD

O'zbekiston xalq artisti, san'at arbobi, Davlat madhiyasi muallifi, betakror kompozitor Mutal (Mutavakkil) Burhonov tavalludiga 110 yil to'ldi.



Buyuk san'atkor 1916-yil 5-may kuni Buxoroda, ziyoli xonadonda dunyoga keldi. Bolalikdan amakilari – jadiclik harakati vakillarining suhbatida hamda pochchasi Fitrat ijodi ta'sirida ulg'aydi. Turkiy va forsiyda bitilmish mumtoz adabiyotga mehri bo'lakcha bo'lib, ayniqsa, Alisher Navoiy g'azallarining shaydosi edi. Sakkiz yoshidayoq tanbur chertishni o'rgandi, dastlab uyda, keyin Fitrat nomidagi birinchi Buxoro musiqa bilim yurtida o'qidi. Ota G'iyos Abdug'ani, Ota Jalol Nosirov, Abduqodir Ismoilov, Abdurahmon Umarov kabi ustozlar yosh Mutaldagi noyob qobiliyatni payqab, u bilan jiddiy shug'ullana boshladi. 30-yillar boshida Toshkentdagi Hamza nomidagi teatrdan tanburchi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Mutal Burhonovning sozandalikdan bastakorlikka o'tish bosqichi Moskva konservatoriyasining o'zbek studiyasida, professor S.Vasilenko rahbarligida o'qigan davriga to'g'ri keladi. Bu orada Ikkinchi Jahon urushi boshlanib, navqiron Burhonov ham qo'lga qurol olib, jangga kiradi. Biroq jang

maydonida og'ir yaralanib, yurtga qaytadi va ijod qilishda davom etadi. Oliy o'quv yurtidagi tahsilini tiklagan vaqtida Mutal Burhonov taniqli kompozitor, ko'plab mashhur qo'shiq va romanslar, sahna asarlari qo'shiqlarining muallifi sifatida tanilgandi. Nihoyat, Moskva konservatoriyasining kompozitorlik diplomini 1949-yili qo'lga oladi.

Mutal Burhonov 1955–1960-yillarda O'zbekiston kompozitorlar uyushmasiga rahbarlik qilgan. U qayerda o'qimasin, qanday lavozimda ishlamasin, bir umrlik sevimli mashg'uloti, hayotining mazmuni bo'lgan musiqa yaratishdan to'xtamadi. Umriining so'nggi yillarini ona shahri Buxoroda kechirgan bastakorning ko'pqirrali ijod namunalari orasida "Ipkalari tillodan", "Go'zal Farg'ona", "Hormang, qizlar" va boshqa mashhur qo'shiqlari, "Namedonam chi nom dorad", "Kelsa nogoh", "Tashladi, ketdi" kabi romanslari, "Abadiy xotira" rekvievi singari go'zal ijod namunalari hamon xalqimizning qalbida saqlanib kelmoqda. Shuningdek, "Alisher Navoiy" dramasi, "Oygu'l va Baxtiyor"

nomli qo'g'irchoq spektakli uchun yozgan musiqalari ko'p yillar muxlislar e'tiborida bo'ldi.

1990-yili Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri sahnasida kompozitorning "Alisher Navoiy" operasi muvaffaqiyat bilan namoyish etildi. Mazkur opera, shuningdek, "Abadiy xotira", "Navoiy qasidasi" rekvievlari, "Muhabbat uchun", "Shoir orzusi", "Sen baribir jilmaymading" romanslari, "Ibn Sino", "Maftuningman" badiiy filmlariga yozgan musiqalari milliy musiqa merosimizdan munosib joy oldi.

"Men bir narsadan faxrlanaman, mening musiqam butun dunyo bo'ylab yangraganida har qanday inson o'rnidan turadi. Buning ma'nosi katta, ular mening san'atim qarshisida emas, Vatanim O'zbekistonning saloblati ovozi qarshisida bosh egadilar. Davlat madhiyasi – Vatanning ovozi..." Bu faxrga yo'g'irilgan so'zlar mustaqil O'zbekistonning Davlat madhiyasi muallifi Mutal Burhonovga tegishli edi. Zero, hech kim Istiqlolni u kabi kutmagan bo'lsa

kerak. Negaki, "katta terror" davrida Mutal Burhonovning akalari, amakilari, jiyanalari hamda pochchasi Fitrat qatag'on domiga tortildi. O'zi esa mudom kuzatuvda yashadi. Ana shu omillar sabab ham oila qurmadi, erta bir kun "xalq dushmani"ning yaqini sifatida hibsi qilinsa, bolalari yetim bo'lib qolishidan xavfsiradi. Ulug' san'atkor sifatida u oilasi boshiga tushgan kulfatni xalqi miqyosida his etdi, bu iztirob qalbiga chuqur o'rnatib, ijodida ham aks etdi.

Mutal Burhonov mustaqillik yillarida davlatimizning yuksak mukofotlari – "El-yurt hurmati" hamda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Butun umri o'zbek milliy musiqa san'ati rivojiga baxshida qilgan, hayotbaxsh, xalqona ijodi, tom ma'noda milliy ruhda yozilgan yuksak musiqiy asarlari bilan o'zbek va jahon musiqa madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan kompozitor Mutal Burhonov 2002-yil vafot etdi.

Gulchehra UMAROVA

YANGI KITOBLAR

"Tarixda insoniyat boshiga tushgan kulfatlarning hisobi yo'q. Biroq yigirmanchi asrda yuz bergan Ikkinchi Jahon urushi g'am-u kulfatlarning eng dahshatli bo'ldi.

Minglab qishloq va shaharlar yer bilan yakson qilindi. Insoniyat necha o'n millionlab qurbon berdi. Taqdir taqozosi bilan men ham ana shu urush qatnashchisi bo'ldim. Aql bovar qilmaydigan ko'rgiliklarga duch keldim, mudhish jinoyatlarga guvoh bo'ldim, yovuz dunyo bilan yuzlashdim. O'sha qop-qora kunlar qalbinga og'riq berib, xayolimdandir birma-bir o'taveradi..."

Atoqli adib va adabiyotshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi va yana ko'plab davlat mukofotlari sohibi, akademik Matyoqub Qo'shjonovning "Yurak dardi" nomli kitobi shunday so'zlar bilan boshlanadi. Darhaqiqat, kitobga so'zboshi yozgan muallifning farzandi Quddus Qo'shjonov ham ushbu mavzu otasi uchun juda og'riqli bo'lganini ta'kidlaydi.

Asardagi mana bu parcha urushning hech kim o'ylamagan yangi qirrasini ochib beradi:

– Umuman, g'alaba yaradorlarga bog'liq.

U yana gapdan to'xtadi. Nima demoqchi ekanini tushunmaganimdan gapning davomini kutardim. U hamon qo'limga o'z yozma singari u yoq-bu yoqqa ag'darayotgandek edi...

– Har qir-qirik yaradorga o'nita o'lim to'g'ri keladi. Qolganlari davolanib, jang maydoniga qaytishadi. Endi u o'q yegan askar hisoblanadi.

UNUTILMAS DARD

O'z ishini bilib qiladigan bo'ladi, o'zini dushman o'qidan ham asray oladi".

"Jangchi do'stlarimizdan biri – Volodya buyum xaltalari yonida tartibsiz yotgan avtomatlardan biriga istar-istamas qo'l cho'zdi. Ikki-uch qadam nariorqda turgan ikkinchi bir jangchi do'stimiz Tyurinning sabr kosasi to'ldi, shekilli, tezlik bilan avtomatni yerdan olib kiyikchaga to'g'rilayotgan ham ediki, kiyikcha yashin tezligidagi harakat bilan o'zini yon tomonga otdi-da, ko'rinmay ketdi.

Tyurin Volodyaga qarab:
– Anqov, og'zidagi oshini oldiradigan lavangi deb sendaqalarni aytadilar! – dedi va boloxonador qilib so'kina ketdi. Volodya qilt etmas, karaxt holda turar, Tyurinning gap-so'zlarini eshitmayotgan ham edi.
– Otmadim, to'g'ri qildim, – dedi u anchadan so'ng".

Mana, urushda qon kechib yurib ham o'zligini yo'qotmagan inson qiyofasi. U dushmani o'ldirishni ham xohlamagan edi, qachonki, dushman o'zi qasd qilguncha. Asarda o'quvchi qalbiga ta'sir qiluvchi bunday hayotiy misollar ko'p.

Sharif Xolmurodov tomonidan yozilgan so'ngso'zda bir jumla bor – kitob muallifi Matyoqub Qo'shjonovga tegishli: "Urushda merganlik qilganin bekorga emas. Men



o'zi tug'ma mergan bo'lsam kerak". Ma'lum bo'lishicha, u bolaligidan ko'zi o'tkir bo'lgan, kupa-kunduz kuni ko'zni qamash tiradigan quyosh nurlari ostida osmondagi yulduzlarni tomosha qilib huzurlangan, qorong'i turlarda ham atrofini xuddi kunduz kabi ravon ko'rib,

yo'lida aslo qoqilmagan. Yana bir e'tiborli jihat: "o'zaro suhbatlarda ham, yuksak minbarlarda ham u kishining nutqi ortiqcha jarangdorlikdan xoli, oddiy, samimiy, mayin, yoqimli, eng muhimi – merganlarча to'g'ri nishonga yo'naltirilgan bo'ladi".

Men bu fidoyi olim bilan bir marta suhbatlashish baxtiga muvaffaq bo'lganman. Buni suhbat ham deb bo'lmaydi. Bir kuni tahriyatdagi xonamga Matyoqub domla kirib kelgan, keksaygan chog'lari edi, ozroq o'tirgan, kimnidir so'ragan, so'ng derazaga boqib turib bir gapni aytgan va xayrlashib chiqib ketgan edi. Men olimning o'sha paytda aytgan o'sha bir jumla gapini kitoblarida ko'rmaganman, chamamda, fikr kelgan-u u kishi aytgan-qo'yg'an: "Derazadan uzoqqa qarasangiz – oynadagi dog'lar ko'rinnmaydi, oynadagi dog'larga qarasangiz – uzoqni ko'rmysiz. Badiiy asar mana shu oynaday gap. Adabiyotshunos oynadagi dog'larni ham, oyna orqasidagi manzarani ham ko'ra bilishi kerak". Shu so'zlar xotiramda qolgan.

"Yurak dardi" nomli ushbu roman-xotira O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan. Kitob nomiga "Buyuk G'alabaga hissa qo'shgan o'zbek mergani" degan tag'sarlavha ilova qilingan: to'g'ri va o'rinni eslatma.

Ikrom ISKANDAR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

G'ALABANING "O'GAY" OTALARI

Inson unutuvidir. Afsuski, u unutmilik shart bo'lgan narsalarni ham unutib qo'yadi. Ammo butun-butun millatlar, xalqlar unutsa olam tartiboti buziladigan, tarixiy adolat oyoqosti bo'ladigan masalalar bor. Ularni o'ylaganda shoiraning "unutganning kuysin ikki dunyosi" satri xayolga keladi.

Ikkinchi Jahon urushining dunyo xalqlariga, shu qatori, xalqimiz boshiga solgan og'ir musibatlar, mislsiz kulfat va yo'qotishlari, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqi qo'shgan munosib hissa ana shunday hech qachon unutilmasligi kerak bo'lgan mavzudir.

Jahon siyosatida mashhur ibora bor: g'alabaning ming bitta otasi bor, mag'lubiyat esa hamisha yetim. Ming afsuski, so'nggi yillarda Ikkinchi Jahon urushidagi sovet Ittifoqining muvaffaqiyatini faqat bir davlat, bir millatga bog'lab talqin qilish holatlari uchrab

teribdi. Shovinstik kayfiyatdagi adiblar, rejissyorlar, artistlar, jurnalist va blogerlar g'alabaning otasi yagonaligini olamga uqtirmoqchi. Bunga nechukdir siyosiy elita ham panja orasidan qarab turibdi.

Ajablanarlisi, bu da'vogarlar dushman qochganda ko'paygan botirlardan. Frontda jon olib-jon bergan, millati, dini va tilidan qat'i nazar yagona maqsad yo'lida birlashganlar o'rtasida bunday ayirmachilik deyarli kuzatilmagan. Hatto, sovetlar hokimiyati zavolga yuz tutganda ham. Endi bo'lsa "o'gay otalar" har yili 9-may arafasida tutqanoq kasali xuruj qilganday ijtimoiy tarmoqlarda provakatsion chiqishlarga zo'r bermoqda. Ular ko'p narsani unutmogda yoki unutganday ko'rinoqda.

Qani, o'zbek xalqisiz g'alabani qanday tasavvur qilish mumkin ekan? O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallarni, 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini, 70

nafardan ziyodi uchala darajadagi "Shon-sharaf" ordenini sotib olmagandir!

Aslida "peshvo"lik da'vosini davom ettirmoqchi bo'lganlar har qanday vaziyatda ham insoniy e'tiqodiga sodiq qolgan olijanov va bag'rikeng xalqimizning buyuk gumanistik fazilatlariga tahsin va tasannolar aytishi, o'z ijodida shu nuqtalarga e'tibor berishi kerak emasmi?

O'zimiz-chi? Nega biz Ikkinchi Jahon urushidagi ishtirokimizni qimtinib, tortinib eslashimiz kerak? Faxrlanish tuyg'usini o'zimizdan boshlashimiz kerakmasmi? Bejiz G'alaba bog'i qad rostladimi? Bejiz Davlatimiz rahbari urush va mehnat faxriylariga misli ko'rilmagan darajada yuqori e'tibor qaratyaptimi?

Agar kimdir yuqoridagilarni unutmogchi bo'lsa, marhamat, O'zbekistondagi 60 nafar urush va mehnat faxriylarining ko'ziga tik qarasin...

Mansur RAHMATULLAYEV
Facebook



Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Myxайё Пустомова

Adadi – 18 477

Shundan:
Kirill yozuvida – 7 005
Lotin yozuvida – 11 472
Media kuzatuvchilar – 82 648
Buyurtma: G – 540
Hajmi: 4 bosma taqoq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI